

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI***

FILOLOGIYA FAKULTETI

**O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi
IV "F" guruh talabasi
G'afforova Halimaning**

**5141100 – “O'zbek tili va adabiyoti” ta'lim yo'nalishi
bo'yicha BAKALAVR darajasini olish uchun
“A. Qahhor ijodini maktabda o'rganish” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

dotsent Tojiboyev R

Qo'qon - 2011 yil

MUNDARIJA

KIRISH	
<i>I-bob. 6-7- SINFLARDA ABDULLA QAHHOR IJODINI O`RGANISH</i>	
1-§ Abdulla Qahhor hayoti va ijodiy faoliyatini yangi pedagogik texnologiya asosida o`rganish.....	
2-§ “Bemor” hikoyasini evristik metod asosida o`rganish.....	
3-§ “O`g`ri” hikoyasini klaster usulida o`rganish.....	
4-§ “Dahshat” hikoyasini bahs-munozara usulida o`rganish.....	
<i>II-bob. 11-SINFDA ABDULLA QAHHOR IJODINI O`RGANISH</i>	
1-§. “Adabiyot muallimi” hikoyasini tadqiqot metodi asosida o`rganish.....	
2-§. “Sarob” romanini taqqoslash, qiyoslash metodi asosida o`rganish.....	
3-§. “O`tmishdan ertaklar” qissasini “Agar men ... “ texnologiyasi asosida o`rganish.....	
<i>III-bob. AKADEMIK LITSEYLARDA ABDULLA QAHHOR IJODINI O`RGANISHNING ILG`OR USULLARI</i>	
1-§. “Sarob” romanini “6x6x6” metodi asosida o`rganish.....	
2-§. “Millatchilar” va “Adabiyot muallimi” hikoyasini induktiv va deduktiv metod asosida o`rganish.....	
XULOSA	
ADABIYOTLAR RO`YXATI	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Har bir fan o'zining uzluksiz taraqqiy etib borish bosqichlariga egadir. Fan rivojida salmoqli ta'sir ko'rsatadigan yangi tarixiy bosqich arafasida, odatda, keng ko'lamdagi bahslar, keskin munozaralardan xoli bo'lmaydi, kurashda shubhasiz, oldingi va navbatdagi bosqishlarning o'zaro munosabati, yangi taraqqiyot bosqishi oldida turgan muammo va masalalar, ularni tadqiq etish yo'llari yuzasidan ilgari surilgan fikrlar ilm ahlining diqqat markazida turadi. ¹“O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda ularning hayotga talqin etishni ta'minlovchi hukumat qarorlari shaklidagi meyoriy hujjatlar asosida Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining poydevori yaratildi. Uzluksiz ta'limning barcha bo'limlarini boshqarish, jahon andozalari va zamon talablari darajasida yo'lga qo'yish, ularning har biri uchun xos bo'lgan xususiyatlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, ta'lim-tarbiyaning yangicha tizimini shakllantirish mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti negizi sifatida kun tartibiga qo'yildi.”

Ta'lim - tarbiya jarayonining barcha jihatlarini qamrab oluvchi Davlat ta'lim standartlari bugungi kunda yosh avlodning vatanga sadoqat, yuksak axloqqa, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish hamda komil farzand bo'lib yetishish yo'lida qunt bilan ta'lim olishlari uchun kafolat bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lim – tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri ta'lim – tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, ta'lim tizimining ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni dars jarayonida tadqiq etishdan iboratdir.

Bugungi pedagogik texnologiya o'quvchida tashabbuskorlikni, mustaqillikni, bilimlarni puxta va chuqur o'zlashtirishni, kuzatuvchanlikni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalovchi usullarni qo'llashni talab etadi. Pedagogik texnologiya ta'lim tizimining ma'lum bosqichini bitiruvchisi shaxsiga xos bo'lgan xususiyatlarni yuzaga keltirish va rivojlantirishga xizmat

“Nutq madaniyatini shakllantirish usullari” I. Po'latov, H. Ahmedova Q. 2008 y.

qiladi. Hozirgi kunda fidoiy o'qituvchilarning ijodiy izlanishlari orqali bir qancha zamonaviy ta'lim usullari ishlab chiqildi. Bunday usullardan samarali foydalanish uchun, avvalambor, o'qituvchi o'z fanini puxta bilishi, ilg'or zamonaviy o'qitish usullaridan yaxshi xabardor bo'lib, ulardan samarali foydalanish yo'llarini kashf eta olishi lozim. SHundagina o'qitish sifatini ham, o'qituvchilarning fanni o'zlashtirish darajasi ham yuqori bo'ladi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining "Yuksak mana'viyat – yengilmas kuch" asarida "adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi" deb aytgan edi. Bu fikrlar aynan Abdulla Qahhor ijodiga nisbatan aytilgan bo'lsa ajab emas. CHunki Abdulla Qahhor o'z asarlarida xalq dardini, davr fojialarini ochiq- oshkora ifoda etgan. Abdulla Qahhor asarlarini yanada kengroq o'rganish kerakligini qo'yish ham uning aynan xalq qalbining kuychisi bo'lganligidadir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. O'zbek adabiyotida Abdulla Qahhor ijodiga qiziqqan va uni o'ziga ustoz deb bilgan juda ko'p yozuvchilar uning asarlariga murojaat qilganlar. Adabiyotshunos va tanqidchilar M.Qo'shjonov va O.SHarafiddinov Abdulla Qahhor asarlari yuzasidan o'z qarashlarini yozganlar. Ular o'z izlanishlarida adib asarlarini atroflicha o'rganib, jahon adabiyotining durdona asarlari bilan solishtirib o'tganlar. M. Ziyodullaeva o'zining nomzodlik ishida yozuvchini maktabda o'rganish bo'yicha ish olib borgan (2008- yil) bo'lsa, S.Ismatov ham o'z qo'llanmasida (1978-yil) Qahhorni maktabda o'rganish yuzasidan fikrlarini bayon etgan. Metodik qo'llanma sifatida nashr etib boriladigan "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida M.Mirzarahimova, G.Nurmatova, Q.Husanboevalarning Abdulla Qahhor ijodini maktabda o'rganish bo'yicha berilgan uslubiy maqolalari ko'rib o'tildi.

Methodist-olim Sa'dulla Ismatovning "Maktabda Abdulla Qahhorning hayoti va ijodini o'rganish" uslubiy qo'llanmasi ikki marta nashr etilgan (1967- va 1978-yillarda). Mazkur kitobda Abdulla Qahhor asarlarini sakkiz yillik maktablarda o'rganish masalasi alohida bobda, o'ninchi sinfda ijodkor hayoti vaji odono o'rganish alohida bobda yoritilgan. Kitobda "Sinchalak"

qissasini o'rganishga salmoqli o'rin ajratilgan. Kitobda Abdulla Qahhor ijodi bo'yicha o'tkaziladigan yozma ishlar metodikasi ham berilgan. Bundan tashqari, adib ijodini sinfdan tashqari o'rganish yo'llari ham ko'rsatilgan.

¹Taniqli metodist- olim A.Zunnunovning "Badiiy asar tahlili metodikasi" nomli uslubiy qo'llanmasi (Toshkent, 1989) da ham Abdulla Qahhorning "Sinchalak" qissasi, "So'nggi nusxalar" komediyasini tahlil qilish yo'llari haqida fikr- mulohazalar berilgan.

A.Tojiyevning "Adabiyot darslarida suhbat" kitobi (Toshkent, 1977) da ham A.Qahhorning "Asror bobo" hikoyasi, "Sinchalak" qissasini o'rganishda suhbat metodining turli usullaridan foydalanish tavsiya etilgan.

Ishning maqsadi. Ta'lim tizimida Abdulla Qahhor ijodini keng miqyosda o'rganish va bu orqali o'quvchilarga adib shaxsini singdirishdan iboratdir.

Ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Maktabda Abdulla Qahhor hayoti va ijodiy faoliyatini yangi pedagogik texnologiya asosida o'rganish.
2. "Bemor" hikoyasini evristik metod asosida o'rganish.
3. "O'g'ri" hikoyasini klaster usulida o'rganish.
4. "Dahshat" hikoyasini bahs- munozora usulida o'rganish.
5. "Sarob" romanini taqqoslash, qiyoslash metodi asosida o'rganish.
6. "Adabiyot muallimi" hikoyasini tadqiqot metodi asosida o'rganish.
7. "O'tmishdan ertaklar" qissasini Agar men... texnologiyasi asosida o'rganish.
8. Akademik litseyda "Sarob" romanini "666" metodi asosida o'rganish.
9. "Millatchilar" va "Adabiyot muallimi" hikoyasini induktiv hamda deduktiv metod asosida o'rganish.

Ishning ilmiy yangiligi. Maktabda, akademik litseylarda Abdulla Qahhor ijodini o'rganish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan bo'lsada, ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar asosida o'rganishga doir yaxlit bir

¹"Badiiy asar tahlili metodikasi" A. Zunnunov T. 1977 y.

ilmiy manba yo'q edi. Bitiruv malakaviy ishda ana shu maqsadga erishishga harakat qilindi.

Ishning nazariy metodologik asoslari. Prezident I.Karimov asarlari, metodik qo'llanmalar, maktab va akademik litsey darsliklari, adabiyotshunoslikka doir gazeta va jurnallar, Abdulla Qahhor ijodiga doir asarlar ishning metodologik asosini tashkil etadi.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Ish Abdulla Qahhor ijodini yoritishda yangicha urinish bo'di. SHuningdek, ish adib ijodini maktab miqyosida hamda akademik litseylarda o'rganishning yangicha usullarini tavsiya qilgani bilan shu soha vakillariga amaliy xizmat qiladi.

Ishning joriylanishi. Bitiruv malakaviy ishi ilmiy rahbar Dotsent R.Tojiboev tomonidan ko'rib chiqildi. Xato va kamchiliklar tuzatilib, tavsiyalar berildi.

Ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy uch bob va ularning ichki fasllari, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-bob. 6-7- SINFDA ABDULLA QAHHOR IJODINI O`RGANISH.

Amaldagi dasturda 6-sinfda Abdulla Qahhor ijodini o`rganish uchun ikki soat, 7-sinfda ham ikki soat ajratilgan. Darsni qay tarzda o`tish har bir o`qituvchining o`z usul va uslubiga bog`liq.

Darslikda bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqib, ijodkorning hayoti va ijodiga doir ma`lumotlar berilgan. O`qituvchi esa ixtiyoriy ravishda qo`shimcha adabiyotlar, rasmlar va boshqa turli ko`rgazmali qurollar vositasida darsni yoritishi mumkin.

1-§. Abdulla Qahhor hayoti va ijodiy faoliyatini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o`rganish.

¹“Pedagogik texnologiya - ta`lim – tarbiya jarayonini yangicha qurish, loyihalash, tashkil etish pedagogik jarayonlarni yangi usul va uslublarida mahorat, san`at bilan boshqarish orqali ta`limning mazmunini yangilash, qiziqarli, faol tarzda uyushtirishdir. Pedagogik texnologiyaning maqsadi o`quvchilarga pedagogik jarayonlarda yangicha yondashgan holda zamonaviy bilim asoslarini berish, kompyuter va axborot texnologiyalarini yosh avlodga o`rgatish, pedagogik jarayonlar mazmunini yangicha faol, qiziqarli usul va uslublarda boshqarish orqali yosh avlodni kamol toptirishdan iboratdir.”

Darsning mavzusi: Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi.

Darsning maqsadi:

**ta`limiy** – o`quvchilarga Abdulla Qahhor haqida dastlabki ma`lumotlarni berish, adibning hayoti va ijodiy faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, tushuncha hosil qilish;

tarbiyaviy-o`quvchilarni vatanparvarlik, ajdodlar rihiga hurmat va o`zaro mehr- oqibat asosida tarbiyalash;

rivojlantiruvchi – o`quvchilarning adib haqida olgan bilimini rivojlantirish, hayoti va ijodiga doir tasavvurini shakllantirish.

Darsning jihozi: darslik, ko`rgazmali qurollar, qo`shimcha adabiyotlar.

¹“Pedagogik mahorat asoslari” S. Isomiddinov Qo`qon 2010 y.

Darsning usuli: Suhbat

Darsning borishi –

I.Tashkiliy qism:

Ustoz: Assalomu alaykum aziz o'quvchilarim,

Adabiyotni sevuvchi bilimga chanqoqlarim.

O'quvchilar: Vaalaykum assalom aziz ustoz – muallim,

Faningizni sevamiz, bizga berasiz ta'lim.

Ustoz: Hozir o'zbek xalq maqolalaridan aytib joyimizni egallaymiz!

(O'quvchilar xalq maqollarini aytib joylashishadi.)

Ustoz: keling, ko'ngil bo'lsin to'q, bugun darsda kimlar yo'q?

(Navbatchi aniqlanib, davomat belgilanadi.)

Ma'naviyat daqiqasi:

“Biz buyuk daholar avlodimiz!”

-Aziz o'quvchilar, biz O'zbekiston deb atalmish jannatmakon yurtda yashaymiz, fahr bilan “o'zbekimiz” deymiz. O'zbek xalqi o'zining boy o'tmishiga, o'z tarixiga, buyuk ajdodlariga egadir. Dunyo miqyosiga chiqib Amur Temur, Alisher Navoiy, Farobiy, Abu Ali Ibn Sino deb aytsangiz taniydigan ajdodlarning avlodimiz.

(Keyin esa ularga quyidagi savollarni berish orqali bilimini charxlayman:)

-Tinchlik va ozodlik uchun kurashgan ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?

-Ularning qanday ezgulik yo'lidagi ishlarini bilasiz?

-Fan olamida buyuk o'zgarishlar qilgan, ilm- fan rivojiga hissa qo'shgan allomalardan kimlarni bilasiz?

-Allomalarimiz nomi qo'yilgan shahar, mahalla, maktab nomlarini bilasizmi?

(O'quvchilar bilan suhbat o'tkazgach, faol qatnashgan o'quvchilarga rangli jeton berib taqdirlayman.)

Sinf 4 guruhga bo'linadi va har bir guruh o'ziga hos nomlanadi:

1 – “Bilimdonlar”;

2 – “Zukkolar”;

3 – “Topqirlar”;

4 – “Donolar”.

II. O`tilgan mavzuni so`rash:

Uy vazifasi etib “Tanobchilar” hajviyasini yodlab kelish berilgan edi. Shu vazifa yuzasidan “Men hushyorman” mashqi asosida har bir guruh hajviyadan to`rt misra aytadi, keyingi guruh davom ettiradi. Shu orqali she`r barcha o`quvchilardan so`raladi. To`xtab qolgan o`quvchiga “jarima” berib keyingi guruhga o`tiladi. Eng yaxshi aytgan guruh “rag`bat” bilan taqdirlanadi.

O`tgan mavzu Muqimiyning “Tanobchilar” asari matni ustida ishlash va hajviy asar haqida tushunchaga ega bo`lish edi. Ushbu mavzu bo`yicha “O`yla, izla, top!” mashqi orqali guruhlarga beshtadan savol beriladi va vaqt belgilanadi.

“Bilimdonlar” uchun:

1. Muqimiy qachon va qayerda tug`ilgan?
2. Adl so`zining ma`nosini izohlang.
3. Misraning ma`nosini sharxlang:
4. O`n ikki oyda keladur bir tanob,
5. O`zgalarga rohatu menga azob.
6. Qanday hajviy asarlarni bilasiz?
7. Sifatlash san`ati nima?

“Zukkolar” uchun:

1. Muqimiyning ilk devoni qachon nashr etilgan?
2. Nifoq so`zining ma`nosi?
3. Misrani shrxlang:
4. Bizga bobo hazrati shoxlig` mazor,
5. Muxlisimiz mardumi ahli diyor.
6. Muqimiyning qaysi asarlarini bilasiz?
7. O`xshatish san`ati nima?

“Topqirlar” uchun:

1. Muqimiy qanday oilada tarbiya ko`rgan?

2. Suxan so`zining ma`nosi?
3. Misrani sharxlang:
4. Xizr otamlarg`a birodar erur,
5. Chimlig` azizlar menga dodar erur.
6. Hajviy asar qanday bo`ladi?
7. Mubolag`a san`ati nima?

“Donolar” uchun:

1. Muqimiy qancha umr ko`rdi?
2. Er hubbi so`zining ma`nosi?
3. Misrani sharxlang:
4. Tag`i bular yaxshiyu bizlar yomon,
5. El tamizidin hazar et, alamon.
6. Hajviy asarlarda nimalar muhim?
7. Qarshilantirish san`ati nima?

Guruhlar savollarga belgilangan vaqt davomida javob beradilar va javobi topilmagan savol muhokama qilinib, boshqa guruhlar javobiga qarab jeton bilan taqdirlanadi.

III.Yangi mavzu bayoni:

Yangi mavzu adib haqidagi quyidagi she`r bilan boshlanadi:

Yo`llar ortimizda qolar edilar,
 Sahrolar qolardi cheksiz, betakror.
 Nega ular cheksiz, desam, dedilar:
 Bu yerdan o`tgandi Abdulla Qahhor.
 Yo`llar ortimizda qolar edilar,
 Cho`qqilar qolardi yuksak va qator.
 Nega ular yuksak, desam, dedilar:
 Bu yerdan ham o`tdi Abdulla Qahhor!

Abdulla Qahhor haqida nimalarni bilasiz, u haqda eshitganmisiz kabi savollar bilan ularning tushunchalarini o`rganaman. Xattaxta yonidagi stolga Abdulla Qahhor asarlari, ijodi asosida tayyorlangan buklet, ijodkor haqida

yozilgan kitoblar va adibning turli suratlari qo'yilgan. Ularni o'quvchilarga birma-bir tanishtirib tasavvur hosil qilaman.

¹“O'zbek milliy nasrining zabardast vakillaridan biri yozuvchi Abdulla Qahhor 1907 yil 17 – sentabrda Qo'qon shahridan uncha uzoq bo'lmagan Asht qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi usta Abduqahhor temirchilik bilan shug'ullangan. Adib ilk tahsilini ko'chib yurgan o'sha qishloqlaridagi eski maktabdan oladi. Qo'qonga muqim o'rnatilishgach, maktab-internatda, o'qituvchilar tayyorlanadigan texnikumda o'qiydi. Keyinroq Toshkentga borib “Qizil O'zbekiston” (hozirgi “O'zbekiston ovozi”) gazetasida ishlaydi. Shu vaqt oralig'ida O'rta Osiyo Davlat Universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy Universiteti) ning pedagogika fakultetida o'qiydi. Bu vaqtlarda “Mushtum” jurnalida uning “Norin shilpiq”, “Sarimsoq” kabi nomlar bilan maqola, feleton va hajviyalari chiqadi.

1932 yilda “Qishloq hukm ostida” qiissasi, 1934 yilda “Sarob” nomli yirik romanini yozib tugatadi. 1935-1939 yillar oralig'ida 3 ta hikoyalar to'lam, 1937 yilda “Sarob” romani kitob shaklida taqdim etiladi. 1941-45 yillardagi II jahon urushi uning ijodiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi, bu vaqtlar orasida mardlik tarannum eyilgan maqola, hikoyalar, gazandalar la'natlangan feletonlar chop etib bordi. Ijodkorning milliy teatrimiz rivojiga hissa qo'shgan “Shohi so'zana” (1951 yil), “Og'riq tishlar” (1954 yil), “Tobutdan tovush” (1962 yil), “Ayajonlarim” (1967 yil) singari komediyalari tomoshabinlarning sevimli asarlariga aylangan.”

Adib 1968 yil 25 – mayda vafot etdi va Toshkentdagi Chig'atoy qabristoniga dafn qilindi. U yashab o'tgan maskan “Abdulla Qahhor uy – muzeyi” ga aylantirilgan. Adib “O'zbekiston xalq yozuvchisi” unvoni va “Buyuk xizmatlari uchun” ordenlariga munosib deb topilgan.

IV. Mustahkamlash:

(Har bir guruhga krossvord berib, topish uchun vaqt belgilayman.)

1-romani; 2 – tugallanmagan qiissasi;

¹6-sinf adabiyot darsligi N. Mahmudov va boshq. T. 2009 y

3-... chiroqlari; 4- komediyalaridan biri; 5- qissalaridan biri; 6- qissalaridan biri; 7- avtobiografik hikoyalaridan biri.

6

Q				1	s	a	r	o	b				
				2	z	i	l	z	i	l	a		7
	o`	sh	ch	i	n	o	r					b	
					ch							e	
	4	a	y	a	j	o	n	l	a	r	i	m	
					l							o	
	5	m	u	h	a	b	b	a	t			r	
					k								

V. Darsni yakunlash:

Aziz o`quvchilar, bugun sizlar bilan ulug` hikoyanavis, Odil Yoqubov aytganidek, “so`zga xasis”, ya`ni mitti durdonalar orqali chuqur ma`no bildiradigan adib Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi haqida ilk bilimlarni oldik.

VI. Uy vazifasi:

Abdulla Qahhorning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni o'zlashtirish va daftarda aks ettirish, "Bemor" hikoyasi bilan tanishish.

VII. O`quvchilar bilimini baholash:

Jetonlar jamlanib, g'olib guruh aniqlanadi va darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadi.

2-§. “Bemor” hikoyasini evristik metod asosida o`rganish.

¹“Bu metod yunoncha “izlayman, topaman” degan ma’noni anglatadigan “heurisko” soʻzidan olingan boʻlib, u mahsuldor ijodiy fikrlash jarayonini tashkil qilishni nazarda tutadi. Taʼlimning mustaqil fikrlashga undashda qoʻl keladigan evristik metodi oʻquvchining oldiga yoʻnaltiruvchi masalalar qoʻyish, ularni tekshirish va hal etish, aks savollar vositasida oʻqitish usuli hisoblanadi. Evristik metodidan foydalanganda oʻqituvchi oʻquv materialining suhbat metodida foydalangan tizimini toʻliq qoʻllashi mumkin. Faqat uning tarkibi qoʻshimcha bilim olishga yoʻnaltiradigan savollar bilan

to'ldiriladi. Mazkur metod tahlili shuni ko'rsatadiki, u suhbat metodida bo'lgan barcha usullarning birgalikda yo'nalishini talab qiladi. Bunda savol-topshiriqlarning mantiqi va vaqt masalasida bir – oz tafovut bo'ladi.” Evristik metodda yetakchilik qiladigan savollar qo'zg'atuvchi ahamiyat kasb etadi. Bunday asosdagi suhbat tizimi topshiriqni bajarish, jarayonni kuzatish, savollarga javob berish, ma'lumot olish, xulosa chiqarish va xulosalarni taqqoslash kabi yo'naltiruvchi ko'rsatmalar bilan ta'minlaganda o'qituvchining fikrlash va bilim olish mustaqilligini anchagina ko'tarishi ma'lum bo'ladi. O'quvchilar taqqoslash, tahlil qilish, dalillar keltirish kabi ish turlarini yangi vaziyatga ko'chiradilar, shu bilan birga ma'lum umumlashmalar qiladilar, farazlarni ilgari suradilar, zarur ashyolar, materiallar to'playdilar, xulosalar chiqaradilar, ma'lum masalani hal qilish bosqichidagi o'z faoliyatlarini rejalashtiradilar. Bu o'qitishning yangi usullari bo'lmish bilimlarni faollashtirish, metodlarni ustma – ust qo'llash kabilarni keltirish zaruratini tug'diradi.

Evristik metodda taqdim etilgan savol, topshiriq va ko'rsatmalar ogohlantiruvchi xususiyat kasb etadi. Ya'ni ular topshiriqning bajarilishi oldidan mazkur bosqichga moslab qo'yiladi yoki uning yechimi davomida o'rta tashlanadi. Adabiy ta'lim jarayonida qo'llanilgan evristik metod o'quvchilarning bilim olish va tafakkuridagi mustaqillikning nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlaydi, ularda mustaqil muloxazalar yaratish, muhokama qilish, xulosalar chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Darsning mavzusi: “Bemor” hikoyasi matni ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

ta'limiy – o'quvchilarga matn va uning tarixi haqida ma'lumot berish, badiiy asar tili haqida tushuncha hosil qilish;

tarbiyaviy – o'quvchilarni vatanparvarlik, o'zaro mexr – oqibat ruhida tarbiyalash;

¹“Adabiyot- ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili” Q.Husanboyeva

rivojlantiruvchi – o`quvchilarning mavzu bo`yicha olgan bilimni rivojlantirish, badiiy asar tili tushunchasini shakllantirish;

Darsning jihozi: darslik, qo`shimcha adabiyotlar, tarqatmalar, ko`rgazmali qurollar.

Darsning usuli: savol – javob

Darsning borishi –

I. Tashkiliy qism:

Ustoz: Assalomu alaykum aziz o`quvchilarim,

Adabiyotni sevuvchi bilimga chanqoqlarim.

O`quvchilar: Vaalaykum assalom aziz ustoz – muallim,

Faningizni sevamiz, bizga berasiz ta`lim.

Ustoz: hozir o`zbek shoir va yozuvchilari nomlarini aytib joyimizni egallaymiz.

O`quvchilar shoir va yozuvchilar nomlarini aytib, joylarini egallaydi.

Ustoz: Keling ko`ngil bo`lsin to`q,

Bugun darsda kimlar yo`q?

Navbatchi aniqlanib, davomat belgilanadi, sinf guruhlariga bo`linadi va guruhlar asosida o`tiladi:

1 – “Bilimdonlar”; 2 – “Zukkolar”;

3 – “Topqirlar”; 4 – “Donolar”.

Ma`naviyat daqiqasi:

“Prezidentimiz asarlarini o`rganamiz!”

- Aziz o`quvchilar! Bilasizki, yurtimizda yoshlarning har tomonlama yuksak salohiyatli bo`lishlari uchun davlatimiz va hukumatimiz tomonidan turli qarorlar qabul qilinmoqda va shart – sharoitlar yaratib berilmoqda. Buning uchun esa tinmay o`qib o`rganishimiz, fan cho`qqilarini egallashimiz lozimdir. Prezidentimizning “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asarlari ham aynan shu haqidadir.

Guruhlarga “tezroq top” mashqi asosida, asar yuzasidan savollar beriladi va tezlikda javobi tinglanadi, javobi topilmagan savollar keyingi guruhga beriladi:

- Asar qachon yozilgan va qayerda nashr etilgan?
- Qanday millatning kelajagi yo'q ?
- Ma'naviy tahdid nima?
- Ma'naviyatga qanday ta'rif berilgan?
- Toshkent “Islom madaniyatining poytaxti” deb qachon e'lon qilingan ?
- Asarda Navoiyga qanday ta'rif berilgan?
- Asarda qaysi adiblarning nomi tilga olingan?
- Milliy g'oya nima ?
- Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi ilk bora qachon ishlab chiqilgan ?
- Eng buyuk jasorat nima ?

Faol qatnashganligiga qarab guruhlar “rag'bat” bilan taqdirlanadi.

II. O'tilgan mavzuni so'rash :

Uy vazifalarini daftardan tekshirib, o'tilgan mavzu bo'yicha “Sen bilasanmi?” mashqi orqali savolli kartochkalar tarqatiladi:

1. Abdulla Qahhor qachon va qayerda tug'ilgan ?
2. Abdulla Qahhorning otasi kim bo'lgan?
3. Adibning bolaligi qayerlarda o'tgan ?
4. Adibning “Sarob” romani qachon yozilgan?
5. Yozuvchi o'qituvchilar tayyorlaydigan texnikumda qachon o'qigan?
6. Adib ilk ish faoliyatini qayerda boshlagan?
7. Abdulla Qahhor qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?
8. Dastlabki qissasi qanday nomlanadi va qachon yozilgan?
9. “Sarob” romani qachon kitob holida nashr etilgan?
10. Adibning qanday komediyalarini bilasiz ?
11. Adibning qaysi qissasi tugallanmagan?
12. Adib qachon vafot etgan?

Javobi topilmagan kartochkalar keyingi guruhga beriladi va eng faol guruhlarga rag'bat va javob bergan o'quvchilarga jeton beriladi.

Yangi mavzu bayoni:

Abdulla Qahhor hikoyanavis yozuvchi bo'lib ,o'zbek hikoyachiligiga munosib hissa qo'shganidir.Uning o'tmish voqealaridan so'zlovchi bir necha hikoyalari bo'lib, shulardan biri “Bemor” hikoyasidir .Hikoya 1936-yilda yozilgan bo'lib , avtobiografik harakterga ega .

Abdulla Qahhor o'z hotiralarida bu haqda yozib qoldirgan va oxirida badiiy to'qimadan foydalangan holda tugatgan.Endi esa hikoyani tinglaymiz:

“BEMOR”

¹“-Sotiboldining xotini og'rib qoldi .

Sotiboldi kasalni o'qitdi –bo'lmadi,tabibga ko'rsatdi .Tabib qon oldi .

Bemorning ko'zi tinib ,bosh aylanadigan bo'lib qoldi .Baxshi o'qidi .Allaqanday bir xotin kelib tolning hipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi ...Bularning hammasi albatta pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda ,albatta, “yo'g'on cho'ziladi,ingichka uziladi”. Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli imorat, shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib, o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi. Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmasdi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'ldan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa turg'izib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

Devonai Bahovuddinga hech narsa ko'tardingmi?

G'avsul A'zamga-chi?

Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi-har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib onasining yuzini karaxt, xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hamma yoq jim faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har

zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitaladi: “Hey do’st, Shaydullo, ba nomi Ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...”

Bir kechasi bemor juda yomon azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo’shnisi bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to’zigan sochlarini tuzatdi, u yoq bu yog’ini siladi, so’ngra... o’tirib yig’ladi.

- Begunoh go’dakning saharda qilgan duosi ijobat bo’ladi, uyg’oting qizingizni! –dedi.

Bola anchagacha uyqu g’ashligi bilan yig’ladi, keyin otasining g’azabidan, onasining ahvolidan qo’rqib, kampir o’rgatgancha duo qildi:

-Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o’sal bo’ldi. “Ko’ngilga armon bo’lmasin” deb “chilyosin”¹ ham qildirishga to’g’ri keldi. Sotiboldi to’qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan 20 tanga qarz ko’tardi. “Chilyosin” dan bemor tirik chiqqanday bo’ldi: shu kechasi hatto ko’zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

- Xudo qizimning saharlab qilgan duosini dargohida qabul qildi. Dadasi endi tuzukman, qizimni saharlab uyg’otmang.

Yana ko’zini yumdi, shu yumgancha qaytib ochmadi- saharga borib uzildi.

Sotiboldi qizini o’lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda, qizcha uyg’ondi va ko’zini ochmasdan odatdagicha duo qildi:

-Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...”

IV. Mustahkamlash:

Xattaxtaga dastlab tushinilishi qiyin bo’lgan so’zlar yoziladi va izohlanadi:

Izvosh - ot qo’shilgan arava;

Oq podsho – o’sha davrdagi Rossiyaning podshosi;

Qabza – tutqich, dasta;

Oftobshuvoq – bahorgi ta’sir kuchi kam oftob;

Chilyosin – Qur’onning “Yosin” surasini o’qish bilan bog’liq bo’lgan diniy marosim;

¹6 sinf adabiyot darsligi N.Mahmudov T.2009 y

Sim – Farg’ona shahrining eski nomi;

Gavron – tayoq, xivich.

Keyin esa “osmon yiroq, yer qattiq”, “yo’g’on cho’ziladi, ingichka uziladi” iboralariga diqqat qaratiladi.

O’quvchilar jumalarning ma’nosini sharhlashga urinib ko’radilar. O’quvchilar quyidagicha javob berishi mumkin:

1 – Maqol chorasiz qolgan odamlarga nisbatan qo’llaniladi. Sotiboldi ham chorasiz, najotsiz inson edi.

2 – ibora yo’g’on bu – boylar, ingichka- kambag’allar; og’ir kunlarda boylar kambag’allashib, Sotiboldiga o’xshagan kambag’allar esa butunlay sinadi.

Fikrlar umumlashtiriladi.

Mustahkamlash qismining keyingi bosqichida “o’ylab ko’r” mashqi o’tkazilib, guruhlariga savol va topshiriqlar beriladi, vaqt belgilanadi:

- Asardagi qaysi detallardan Sotiboldining xotini yosh ekanini bildingiz?
- Abdug’aniboyning berahm, xasis ekanligini qaysi detallar ko’rsatadi?
- Sotiboldi xotinini nega kasalxonaga olib bormadi?
- Tabib haqida qanday fikrdasiz?
- Abdug’aniboy qanday inson, nega Sotiboldi kam haq oladi?
- Tashqarida gadoylar ovozi eshitilishining asarga qanday aloqasi bor?

(O’quvchilar javobi tinglangach, jumalarni to’ldiraman va javob darajasiga qarab jeton bilan taqdirlayman.)

Mustahkamlash qismining so’nggi bosqichini “Diqqat! Muammo!” deb nomlanadi. O’quvchilarga quyidagi savollarni berish orqali bahs – munozaraga chorlanadi.

- Nega asar “Bemor” deb nomlangan?
- Bemor dardining davosi nimada deb o’ylaysiz?

Guruhlar o’zaro bahs – munozaraga kirishib, o’z fikrlarini asoslab berishga urinadilar.

Javoblar natijasiga qarab jeton bilan baholayman.

Asar so’ngida berilgan badiiy asar tili haqida tushuncha bo’yicha ma’lumot beraman:

¹“Til bilan bogʻliq uchta tushunchani aralashtirib yubormaslik, ularni oʻzaro farqlash lozim. Bular: 1. Umumxalq tili. 2. Adabiy til. 3. Badiiy til.

Umumxalq tili deganda yurtimizdagi oʻzbek tilida soʻzlashuvchilarning barchasi – ularning yashash hududi, qaysi ijtimoiy tabaqaga mansubligi, hayotda bajarayotgan mashgʻulot turi va boshqalaridan qatʼi nazar, foydalanadigan til tushuniladi.

Adabiy til deganda umumxalq tilining leksik, grammatik, imlo va talaffuz jihatdan meʼyorlashtirilgan shaklini tushunamiz.

Badiiy til esa, bir tomondan umumxalq tili va adabiy tilga tayanadigan, boshqa jihatdan esa ularni har ikkisidan farqlanib turadigan alohida sanʼat hodisasidir. Badiiy tilning mavjudligi ijodkor shoir va yozuvchilar faoliyati bilan chambarchas bogʻliqdir. Shu maʼnoda badiiy til oʻz zamirida milliy adabiyotimizning asrlar osha shakllanib kelgan anʼanalarni saqlab qolgan. Ayni paytda har bir isteʼdodli ijodkor badiiy til imkoniyatlari doirasini kengaytirishi, bu tilning yanada joziba kashf etishini taʼminlashi mumkin. Bu jarayonda adabiy til qonun – qoidalaridan chekinishga, umumxalq tili boyliklariga dadil murojaat qilishiga toʻgʻri keladi.”

Har bir qahramon oʻziga oʻzgacha yondoshuvni talab qiladi, har birining yuragi alohida kalit bilan ochiladi. Bu kalit – uning kayfiyati, feʼl – atvori, nutqi, axloqi, dunyoqarashi singari oʻnlab unsurlarning betakror tasviri bilangina ishga tushadi. Shundagina oʻquvchi koʻz oldida qahramon xuddi tirikdek harakat qiladi, gapiradi, kuladi, oʻylanadi, iztirob chekadi, shodlanadi va ... oʻladi. Qahramonning har bir harakati oʻquvchiga ham “yuqadi” uni oʻz olamiga “olib kirib ketadi”.

V. Darsni yakunlash:

Aziz oʻquvchilar, bugun sizlar bilan ancha hazin boʻlgan “Bemor” hikoyasini oʻtdik va asar boʻyicha ishladik, undagi muammolar haqida oʻylab koʻrdik va javobini topishga urindik.

¹Oʻsha asar

Demak, nafaqat Sotiboldining xotini, balki jamiyat ham BEMOR ekan.

VI. Uy vazifasi:

Uy vazifasi qilib “Bemor” hikoyasining hayotiy davomini har kim oʻzicha tasavvur qilib yozib kelish.

VII. Oʻquvchilar bilimni baholash:

Guruhlar jetonlari jamlanib, ilgʻor guruh aniqlanadi. Darsda faol qatnashgan oʻquvchilar baholanib, baholar izohlanadi.

3.§. “Oʻgʻri” hikoyasini “klaster” usulida oʻrganish.

¹“Klaster” (“tarmoqlar”) metodi oʻquvchilarni biron bir mavzuni chuqur oʻrganishlariga yordam beradi. Mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma – ketlik bilan uzviy bogʻlagan holda tarmoqlashlariga oʻrgatadi. Bu metod oʻquvchilarni oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi. Klaster usuli zamonaviy taʼlim jarayonida keng qoʻllanilmoqda. “Klaster” soʻzi “Gʻuncha, bogʻlam” maʼnosini anglatadiki, bu biror mavzuni oʻrganayotgan oʻquvchilarning erkin fikrlashiga yordam beradi, ularga oʻz fikrini ochiq – oydin ifodalashga koʻmaklashadi.” Bu usul qoʻllanilganda oʻrganilayotgan mavzuga oid boʻlgan tushunchalarning barcha variantlari jamlanadi. Natijada mazkur mavzu oʻquvchi ongida barcha jihatlari bilan namoyon boʻladi. Klasterlarga ajratish orqali oʻquvchining fikrlashi ragʻbatlantiriladi. Chunki u mavzuni klasterlarga ajratishda oʻz ishtiroki bilan sinfga maʼlum muammoni hal etishda yordamlashadi. Klaster usuli oʻquvchilarda bilganlarini ifodalashdan tashqari yangi fikrlarni uygʻotadi, mavzu boʻyicha oʻz qarashlarini oshkora bildirishga oʻrgatadi. Klaster tuzish ketma – ketligi quyidagi tartibda boʻldi: 1) xattaxtaga “kalit soʻz” yoxud “kalit birikma” yoziladi; 2) oʻquvchilarga bu mavzuga oid tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar yoki birikmalarni yozish topshirigʻi beriladi; 3) mavzuga oid tushunchalar va gʻoyalar oʻrtasida oʻzaro bogʻlanish boʻlishi lozimligi taʼkidlanadi;

¹“Pedagogik mahorat asoslari” S.Isomiddinov Q.2010 y

4) o`quvchilar bilgan mavzuga oid variantlarning barchasini yozishlariga imkon beriladi. Klaster tuzishda sinfdagi barcha o`quvchilarning ishtirok etishiga erishish lozim. Shudagina ko`zlangan natijaga, ya`ni o`quvchilarni faollashtirishga, o`rganilayotgan mavzuga befarq bo`lmasligiga erishish mumkin.

Darsning mavzusi: Abdulla Qahhorning hayoti va ijodi.

“O`g`ri” hikoyasi matni ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

***Ta`limiy*** – o`quvchilarga Abdulla Qahhorning hayoti haqida qo`shimcha ma`lumot berish, “O`g`ri” hikoyasi bilan taniishtirish, matn ustida ishlash orqali tushuncha hosil qilish;

Tarbiyaviy – o`quvchilarni ona tabiatga mehr, vatanga muhabbat va o`zaro inoqlik asosida tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi– o`quvchilarning fan yuzasidan olgan bilimini mustahkamlash, mustaqil fikr ko`nikmasini shakllantirish.

Darsning jihozi: Darslik, tarqatmalar, ko`rgazmali qurollar.

Darsning usuli: Savol – javob.

Darsning borishi –

I. Tashkiliy qism:

*O`quvchilar:* Fan olami go`yo bir dengiz,

Javohirlar unda beqiyos.

Ta`zim bilan aytamiz sizga,

Assalom, ey, muhtaram ustoz!

Ustoz: Salom aziz o`quvchilarim,

Ilm gulshanida gulg`unchalarim.

Bugungi darsimiz adabiyot,

Barcha so`zlar sizga bo`lsin yod.

Bugungi darsga barchangiz shaymi?

O`quvchilar: Adabiyot fanining ixlosmandimiz,

Bugungi darsga barchamiz shaymiz.

Ustoz: O`quvchilar, hozir barchangiz vatan haqidagi hikmatli so`z, maqol yoki to`rt satr she`r aytib joylashing.

O`quvchilar ona yurt haqidagi hikmatli so`z, maqol va she`rlarni aytgandan so`ng joylashadilar.

Navbatchi aniqlanib davomot belgilanadi. Sinf uch guruhga bo`linadi va quyidagicha nomlanadi:

1 – “Barkamol avlod”; 2 – “Porloq kelajak”; 3 – “Tafakkur yulduzlari”.

Siyosiy daqiqa:

- Siyosiy daqiqada quydagi savollarni berish orqali o`qovchilar bilimi sinaladi:
- O`zbekiston qachon mustaqil davlat deb e`lon qilingan?
- O`zbekiston Respublikasi davlat bayrog`i qachon qabul qilingan?
- O`zbekiston Respublikasi davlat gerbi qachon qabul qilingan?
- O`zbekiston qachon BMT ga a`zo bo`lgan?
- Bu yil Prezidentimiz tomonidan qanday yil deb e`lon qilindi?
- Siz yoshlarga e`tiborni nimalarda ko`rishingiz mumkin?

O`quvchilarga mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar tasvirlangan suratlar taqdim etiladi. Davlatimiz ramzlari aks etgan va qadimiy shaharlarimiz tasviri tushurilgan suratlar ko`rsatiladi va izoh beriladi.

II. O`tilgan mavzuni so`rash:

O`tilgan mavzu bo`yicha auksion o`tkazaman. Auksion quyidagi tartibda o`tkaziladi: O`quvchilarga raqamlangan summali vatmon taqdim etiladi. O`quvchilar istagan raqamlarini aytib raqam bilan birgalikda kelgan summani qo`lga kiritadilar, buning uchun raqam ostiga yashiringan savollarga javob berishlari kerak.

1 200	2 500	3 300	4 200
5 400	6 300	7 400	8 500
9 200	10 300	11 400	12 500

- O`quvchilarga quyidagi savollarni beraman:
- Turdi Farog`iy qaysi davrlarda yashab ijod etgan?
- Turdining hayoti va faoliyati kimlar hukmronlik qilgan davrga to`g`ri kelgan?
- Turkiston qachon uch xonlikkka bo`linib ketdi?
- Bu davrda Qo`qonda kim hukmronlik qilgan?
- Nodirmuhammad Xivaga qachon qo`shin kiritdi?
- Miyonko`lda Subhonqulixonga qarshi qo`zg`lon qachon bo`lgan?
- “Bov” so`zining ma`nosi?
- Turdining bizga qancha adabiy me`rosi yetib kelgan?
- Turdi qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?
- Soqiy so`zining ma`nosi?
- “Tor ko`ngullik beklar ... “ she`ri qaysi janrda yozilgan?
- O`zbeklar etnik jihatdan necha urug`dan iborat bo`lgan, ulardan ayrimlarini ayting.

To`g`ri javob berib, eng ko`p summa yig`gan guruhga “Sirli sovg`a”, ya`ni bugungi o`tilajak ijotkor kitobi sovg`a qilinadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

O`quvchilar hukmiga Abdulla Qahhor asarlari, hayot yo`liga doir ma`lumotlar tasvirlangan bukletlar taqdim etiladi va bir – bir tanishtiriladi. O`quvchilarning 6 – sinfda Abdulla Qahhor hayoti va ijodi bilan tanishganini hisobga olgan holda guruhlariga adib hayoti va ijodiga doir ma`lumotlardan hotiralarida qolganini “klaster” usulida yozib chiqish topshiriladi.

Har bir guruh o`zi bajargan ish yuzasidan taqdimot o`tkazadi, guruhlar fikri tinglab o`tilgach, qo`shimcha qilib to`ldiraman va yozuvchi haqida aytilgan ushbu fikrlarni keltirib o`taman:

¹“**Abdulla Qahhor kamdan kam yozuvchiga nasib bo`ladigan baxt sohibi – u allaqachonlar xalq qalbining to`ridan joy olgan. Respublikamizda uning nomini eshitmagan biron qishloq, kitoblari kirib bormagan biror xonadon yo`q desa bo`ladi. Uning asarlarini talaba ham, dehqon ham, ishchi – yu olim ham baravar sevib o`qishadi “ Ozod Sharafutdinov**

“ Yozuvchi so`zga shunchalik xasiski, agar bu mitti durdonalarning har birini qayta hikoya qilingudek bo`lsa, hikoyaning o`zidan ko`p joyni egallagan bo`lar edi... “ Odil Yoqubov.

“Men tajriba uchun ustozning “Bemor”, “O`g`ri”, “Anor” hikoyalaridan ba`zi so`zlarni olib tashlab ko`rdim. Bo`lmadi. Hikoya bir ustuni olib tashlangan ayvonga o`xshab lapanglab qoldi.” Said Ahmad

- Abdulla Qahhor siz yuqorida tinglagan yozuvchilar aytganidek, so`z tanlash va uni qo`llay bilishning noyob uquvini olgan buyuk yozuvchi edi.

Aziz o`quvchilar, endi adibning darslikda berilgan “O`g`ri” hikoyasini o`qishga kirishamiz:

O`G`RI

Otning o`limi itning bayrami.

Maqol

Kampir tong qorong`isida hamir qilgani turib ho`kizidan xabar oldi. O! ... Ho`kiz yo`q, og`il ko`cha tomondan teshilgan ... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho`kizi yo`qolmasin. Bir qop somon, o`n – o`n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho`kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo`yish kerak bo`ladi.

Kampir dod soldi. Odamlar dod ovozig a o`rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi ... Ammo kampirning dodiga odam tez

¹“Adabiyot- ma`naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili” Q.Husanboyeva T.2009 y

to`plandi. Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og`il eshigi yonida turib dag` - dag` titraydi, tizzalari bukilib – bukilib ketadi, ko`zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko`rmaydi. Xotinlar o`g`rini qarg`aydi, it huradi, tovuqlar qaqag`laydi. Kimdir shunday kichkina teshikdan ho`kiz sig`ishiga aql ishonmasligi to`g`risida kishilarga gap ma`qullaydi. Qobil boboning qo`shnisi – burunsiz ellikboshi keldi, og`ilga kirdi. U og`ilga kirib teshikni, ho`kiz bog`langan ustunni diqqat bilan ko`zdan kechirdi, negadir ustunni qimirlatib ham ko`rdi, so`ngra Qobil boboni chaqirdi va pang tovush bilan dedi:

- Ho`kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.

Uning og`ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga bir umid bag`ishlagan edi, bu so`zi haddan ziyoda sevintirdi. Chol yig`lab yubordi.

- Xudo xayr bersin ... Ola ho`kiz edi ...

Odamlar o`g`ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho`kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorda sotishi mumkin ekanligi to`g`risida bahslasha – bahslasha tarqaldi. G`ovur bosildi. Qobil boboning kampiri yig`idan to`xtab ellikboshini duo qila ketdi.

Ellikboshi o`g`ri teshgan yerni yana bir ko`rdi. Qobil bobo qo`l qovushtirib, uning ketidan yurar va yig`lar edi.

- Yig`lama, yig`lama, deyman! Ho`kizing oq podsho qo`lidan chiqib ketmagan bo`lsa, topiladi. Ellikboshi ho`kizni juda naqd qilib qo`ydi – go`yo u ko`chaga chiqsa bas – ho`kiz topiladi. Bu “xudo yallaqagur” shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim – da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo`lishi uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o`ziga yetti yuz bog` beda, bir toy bergani ma`lum. Poshsholikdan oylik yemasa! Qobil bobo hamyonini qoqishtirib borini ellikboshiga berdi, yana qancha duo qildi. Ellikboshi beto`xtov aminga xabar qilmoqchi bo`lib chiqib ketdi.

Kechqurun Qobil bobo aminning oldiga boradigan bo`ldi. Quruq qoshiq og`iz yirtadi, aminga qancha pul olib borsa bo`ladi? Berganga bitta ham ko`p, olganga o`n ta ham oz. Chol kampir kengashib shunday qarorga kelishdi: bu

chiqim oxirgi va ho`kizni bo`ynidan bog`lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas. Qobil bobo ro`para bo`lganda amin og`zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin baqbaqasini osiltirib kuldi.

- Ha, sigir yo`qoldimi?

- Yo`q ... sigir emas, ho`kiz, ola ho`kiz edi.

- Ho`kizmi? Ho`kiz ekan – da. Hmm ... Ola ho`kiz?

Tavba ...

- Bor – yo`g`im shu bitta ho`kiz edi ...

Amin chinchalog`ini ikkinchi bo`g`inigacha burniga tiqib kuldi.

- Yo`qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho`kiz edi?

- Ola ho`kiz ...

- Yaxshi ho`kizmidi yo yomon ho`kizmidi?

- Qo`sh mahali ...

- Yaxshi ho`kiz birov yetaklasa keta beradimi?

- Bisotimda hech narsa yo`q ...

- O`zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa qaytib kela ber, deb qo`yilmagan ekan – da! Nega yig`lanadi? A? Yig`lanmasin!

Qobil bobo yerga qarab tik qoldi.

- Qidirtirsakmikin – a? – dedi amin chinchalog`ini etigining ostiga artib.

– Suyunchisi nima bo`ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?

Aminning bu gapi Qobil boboga “Ma, ho`kizing” deganday bo`lib ketdi.

- Kam bo`lmang, - dedi pulni uzatib, - yana xizimatingizdaman.

-Men beto`xtov pristavga xabar beraman, o`zi chaqirtiradi.

Bir hafta o`tdi. Bu bir hafta ichida kampir “Duoning zo`ri bilan qulf ochadigan” Azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo`xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi. Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi. Aminning tepa sochi tikka bo`ldi:

- Ha, ho`kizni uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin – da!

Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo`ladi!

Qobil bobo yor – do`stlar bilan kengashdi – pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo`ldi? Ma`lum bo`ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.

Uchta tovuq, garchi biri kurk bo`lsa ham, Qobil boboning o`zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo`ni – qo`shni, yor – birodarlar o`zaro yig`ib berdi. Ammo bu tortiq bilan tilmochdan nari o`tib bo`lmadi. Tilmoch tortiqni oldi va beto`xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va`da qildi. Cholning butun bo`g`inlari bo`shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go`rda bir narsa deya oladimi? “ O`ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan”. “ Yaxshilab tushuntirilgan” pristav bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so`m pul olganidan keyin, Qobil boboning baxtiga: “ Beto`xtov hokimga xabar beraman” , - demasdan: “Aminga bor”, - deb qo`yaqoldi. Amin : “ Ellikboshiga borilsin “, - dedi.

- Gumoningizni ayting bo`lmasa! – dedi ellikboshi tajang bo`lib. – Kim olganini men bilmasam, avliyo bo`lmasam! Olgan odam allaqachon so`yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz ko`nchilikka borib terilarni bir qarab chiqing. Ammo terisi ko`nchilikka tushgan bo`lsa, allaqachon charm bo`ldi; xudo biladi, kavush bo`lib bozorga chiqdimi...

- Endi bizga juda qiyin bo`ldi-da. Peshonam sho`r bo`lmasa... - dedi chol yerga qarab.

- Ey, yosh bolamisiz! Nega yig`laysiz? Kap – katta odam... Bitta ho`kiz bo`lsa bir gap bo`lar, xudo ajalga to`zim bersin! Men qaynatamga aytayin, sizga bitta ho`kiz bersin. Bitta ho`kiz odamning xunimi?

Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynotasi Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko`p achindi va yerni xaydab olgani bitta emas, ikkita ho`kiz berdi, lekin “Kichkinagina” sharti bor. Bu shart kuzda ma`lum bo`ladi...

IV. Mustahkamlash:

Avvalo guruhlarga umumiy savol tashlash bilan ularning fikri so`raladi, savollar quyidagicha bo`lishi mumkin:

- Hikoya nomi va epigrafiga e'tibor qilaylik, nega aynan shu nom va epigraf tanlangan, boshqacha nomlash ham mumkinmi?
- Nega aynan Qobil bobo? Hikoya qahramonining nomida ramziy ma'no bormi, nima deb o'ylaysiz?

Guruhlar o'zlarining fikrlarini bildirib o'tadilar. So'ngra guruhlariga muammoli savollar kartochka holida beriladi va guruh a'zolari o'zaro kelishib javob berishga urinadilar:

“Barkamol avlod”:

1. Hikoya qaysi faslda sodir bo'lgan deb o'ylaysiz, javobingizni asoslang?
2. “Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin” jumlasining ishlatilish sababini izohlang.

“Porloq kelajak”:

1. Qobil boboning holati tasviriga e'tibor qarating, nega u dag` - dag` titraydi?
2. Ellikboshining taftishiga izoh bering.

“Tafakkur yulduzlari”:

1. Nega qonun himoyachilarining o'zlari jinoyat qilmoqdalar, nega Qobil bobo ularga qarshi chora ko'rmadi?
2. Egamberdi paxtafurushning sharti qanday bo'larkin?

(Har bir guruh o'zlariga berilgan muammoli savollar yuzasidan fikrlarini bildiradilar. Ularning fikrini eshitib to'ldiraman va o'z fikrimni bildiraman.)

V.Darsni yakunlash:

- Aziz o'quvchilar, bugun sizlar bilan so'z san'atkori Abdulla Qahhor hayoti va ijodi hamda “O'g'ri” hikoyasi yuzasidan suhbatlashdik, mulohaza qildik.

O'quvchilarning mavzu yuzasidan bergan savollariga javob qaytaraman.

VI.Uy vazifasi:

Hikoyadagi maqol, ibora va o'zlari uchun qiziq bo'lgan jummalarni yozib kelish hamda “Dahshat” hikoyasi bilan tanishib kelish beriladi.

VII.O'quvchilar bilimni baholash:

“Auksion” da g'olib bo'lgan guruhga Abdulla Qahhorning “O'tmishdan ertaklar” qissasi sovg'a qilinadi. Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanib, baholar izohlanadi.

4§ “Dahshat” hikoyasini bahs – munozara usulida o`rganish.

Bahs – munozara (debat) usuli maktab, kollej va akademik litseylarda qo`llanayotgan ilg`or texnologiyalardan bo`lib, o`quvchilarni mavzuni chuqur tushunishlariga yo`naltiruvchi, o`ylantiruvchi va aqlini charxlovchi dars turi hisoblanadi. O`quvchilar mavzu va undagi biror og`riqli nuqta, muammo yuzasidan bahsga kirishishlari natijasida asar dardi o`quvchiga yuqadi, bezovta qiladi va o`ylantiradi. Buning natijasida ana shu muammolarni hal etishga, aybdor yoki qahramonlik ko`rsatganni izlashga, asar yuzasidan xulosa chiqarishga intiladi. Bahs – munozara usulining, garchi yo`lga qo`yilganiga uzoq yillar bo`lgan bo`lsada, afzalligi shundaki, bu usul orqali barcha o`quvchi bevosita ishtirok etadi va usul butun sinfni qamrab oladi. Bahs davomida ularning to`g`ri yo`nalishda ketishlari uchun o`qituvchi ularga yo`l boshlovchi bo`lib turishi, asardan noto`g`ri xulosa chiqarmasliklari uchun boshqaruvchilik qilishi mumkin. Bahs orqali o`quvchilar asarning g`oyaviy nuqtasini topishi va muallif aytmoqchi bo`lgan fikr yuzasidan xulosa chiqarishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

Darsning mavzusi: Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi matni ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

**ta`limiy** – o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, hikoya bo`yicha ma`lumot hosil qilish;

tarbiyaviy – o`quvchilarni insonparvarlik, o`zaro mehr – oqibat ruhida tarbiyalash;

rivojlantiruvchi – o`quvchilarning mavzu bo`yicha olgan bilimini rivojlantirish, mustaqil fikr tushunchasini shakllantirish.

Darsning jihozi: Darslik, tarqatmalar, ko`rgazmali qurollar.

Darsning usuli: Savol – javob.

Darsning borishi: -

Tashkiliy qism:

*O`quvchilar:* Fan olami go`yo bir dengiz,
Javohirlar unda beqiyos.
Ta`zim bilan aytamiz sizga,
Assalom, ey, muhtaram ustoz!

Ustoz: Salom, aziz o`quvchilarim,
Ilm gulshanida gulg`unchalarim.
Bugungi darsimiz adabiyot,
Barcha so`zlar sizga bo`lsin yod.
Bugungi darsga barchangiz shaymi?

O`quvchilar: Adabiyot fanining ixlosmandimiz,
Bugungi darsga barchamiz shaymiz!

Ustoz: Aziz o`quvchilar, hozir barchangiz o`zbek nasriy asarlari nomini aytib joyingizni egallang.

O`quvchilar asarlar nomini aytib joylashadilar.

Navbatchi aniqlanib, davomat belgilanadi. Sinf uch guruhga bo`linadi va quyidagicha nomlanadi:

1 – “Barkamol avlod”; 2 – “Porloq kelajak”; 3 – “Tafakkur yulduzlari”.

Siyosiy daqiqa:

- Aziz o`quvchilar axborot dasturlarini kuzatib borayapsizlarmi?
- Bugungi kunda dunyo miqyosida va O`zbekistonda qanday voqea – hodisalar sodir bo`lmoqda?

O`quvchilar shu kunning xabarlarini haqida qisqacha aytib o`tadilar.

II.O`tilgan mavzuni so`rash:

Uy vazifasi bo`yicha “O`z – o`zimizni tekshiramiz” mashqi asosida berilgan topshiriq tekshiriladi va xattaxtaga osib qo`yilgan vatmon qog`ozidagi fikrlar bilan solishtiriladi:

Otning o`limi- itning bayrami.

Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho`kizi yo`qolmasin.

Ho`kiz olish uchun necha zamon qozonni suvga tashlab qo`yish kerak.

Oq podsho qo`l ostidan chiqib ketmagan bo`lsa, topiladi.

Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi.

Quruq qoshiq og`iz yirtadi.

Berganga bitta ham ko`p, olganga o`nta ham oz.

Yo`qolmasdan ilgari bormidi?!

Yaxshi ho`kizmidi yo yomon ho`kizmidi?

Yaxshi ho`kiz birov yetaklasa ketaberadimi? O`zi qaytib kelmasmikin, birov olib ketsa qaytib kelaber, deb aytib qo`yilmagan ekan – da?

Duoning zo`ri bilan qulf ochadigan.

Tepa sochi tikka bo`ldi.

Uni belim deguncha, kishining beli sinadi.

O`ynashmagil arbob bilan, seni urar har bob bilan.

Bitta ho`kiz odamning xunimi?

O`quvchilarning xatolari so`ralib tahlil qilinadi.

O`tilgan mavzu yuzasidan “Aqliy hujum” metodi asosida tezkor savollar beriladi:

- Abdulla Qahhor qachon va qayerda tug`ilgan?
- Uning oilaviy ahvoli qanday bo`lgan?
- Adibning bolaligi qayerlarda kechgan?
- Adib qayerlarda tahsil olgan?
- Adib ijodini nechanchi yildan boshlagan?
- “Sarob” romani qachon yozilgan?
- Adibning yana qanday asarlarini bilasiz?
- Adibning “O`g`ri” hikoyasi qahramonlarini sanang.
- Asar qahramoni kimlarning qo`lidan o`tdi?
- “O`g`ri” hikoyasidagi voqealar qachon bo`lib o`tgan?

O`quvchilar fikri tinglanib to`ldiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

-Aziz o`quvchilar, bugun biz atoqli adib Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasi bilan tanishamiz. Hikoya matni bilan tanishdinglarmi?

O`quvchilarning ayrimlari hikoyani o`qib kelganini, ayrimlari yaxshi tushunmaganini aytishi mumkin. Keyin hikoyani o`qib beraman:

DAHSHAT

¹Yaqin ikki haftadan beri ko`z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g`uvillaydi, tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. Bunday kechalarda odamzod qo`ymijoz, g`uj bo`lib va nimanidir kutib jimgina o`tirishni xohlab qoladi.

Olimbek dodxoning sakkiz xotini katta kundosh Nodirmohbeginning uyiga yig`ilib, sandal atrofida o`tirishar edi. Dodxo har kecha taroveh namozidan keyin halqaga qolar edi, bu kecha erta qaytdi. Hamma to`zidi: Xotinlardan biri sallasini oldi, biri chakmoniga qo`l uzatdi, biri mahsisini tortgani chog`landi ... Kundoshlarning eng kichigi – bu dargohga tushganiga besh oygina bo`lgan kelinchak – ganjiravonlik Unsinoy chilim solib tutdi. Dodxo chilimni bir marta, lekin juda qattiq tortdi-yu, yasov tortib turgan xotinlariga e`tibor bermay, to`rga o`tdi va darchani jindakkina qiya qilib, bir ko`zi bilan tashqariga qaradi. Shamol goh och bo`riday uvillar, goh o`lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag`illar, hech narsa – hech narsa ko`rinmas edi. Dodxo darchani zichlab yopdi, joyiga borib tasbeh o`girishga kirishdi. Uning barmoqlari tasbeh donalarini tez-tez o`girayotgan bo`lsa ham, qulog`i guvillayotgan shamolda, xayoli go`ristonda edi: “Hozir go`riston qanaqa vahimali bo`lsa ekan ...”

O`zbek go`ristoni o`zi xunuk, buning ustiga, go`riston haqida aytilmagan hunuk gap, to`qilmagan vahimali mish-mish qolgan emas. Haqiqatdan, bunday kechalarda go`riston esiga tushgan har qanday odam, ayniqsa dodxo singari payg`ambar yoshidan oshib, kafanligini sandiqqa solib qo`ygan kishi o`lishdan ham ko`ra go`ristonda yotishini o`ylaganida tiligacha sovuq ter chiqadi.

Dodxo go`riston hayolini boshidan chiqarish uchun tasbehni qo`yib undan-bundan gapirgan bo`ldi...

IV. Mustahkamlash:

O`quvchilar Unsinning fojiali taqdiri bo`yicha bahs-munozaraga kirishadilar.

¹7 sinf adabiyot darsligi Q. Yo`ldoshev va boshq. T.2005 y

Unsinning jur`ati, yolg`iz go`ristonga borishi, biroz qo`rquv va o`z-o`ziga taskin, Unsinning o`limi yuzasidan guruhlar o`z fikrlarini bildiradilar. Fikrlar quyidagicha bo`lishi mumkin:

- Dodxo ko`pxotinli shaxs, Unsin unga majburan turmushga chiqqan. Shuning uchun ham u ketish yo`lida har nega tayyor. Unsin o`sha zamon ayollari kabi hamma narsaga ko`nib yashashni xohlamaydi va bu yerlardan ozod bo`lishni istaydi.

- Unsin dodxoga ko`nglidagini aymoq uchun o`zida jur`at topdi. Dodxoning dahshatli, ammo ozod qiluvchi sharti unga umid bag`ishladi. Unsin dadil bordi, biroq u ham inson, qabristonga yetganda qo`rqa boshladi. Lekin o`zini-o`zi ovutish uchun “O`liklarning joni yo`q!” deya qichqirdi. Choyni qaynatdi, biroq shafqatsiz dodxoning maymun yuborishi uni cho`chitdi.

- Maymunning Unsinga sapchishi uni qattiq cho`chitdi, shunda ham o`zida kuch topdi. Unsin qattiq qo`rqish natijasida og`irlashdi. O`zini yomon seza boshladi, amallab uyiga yetib bordi-yu, hushidan ketdi. Unsin vafot etdi, jisman yengildi-yu, ruhan yengdi. Unsin garchi vafot etgan bo`lsada, ko`nglidan o`tganiga ko`ra dodxoga qarshi chiqib, o`sha zamon uchun buyuk jasorat ko`rsata oldi.

Unsinning fojiasiga kim aybdor, o`sha zamon va bugungi ayollarning taqdiri, jamiyat kabi masalalarda guruhlar mulohaza yuritadilar. Guruhlar bir-birlarining fikrlarini tinglab, izohlashga urinadilar. Guruhlar fikrini jamlab, umumiy fikr aytaman.

V. Darsni yakunlash:

O`quvchilar, bugun biz ancha mahzun bo`lgan “Dahshat” hikoyasi bilan tanishdik. Bugun biz mustaqil, har tomonlama ozod fuqarolarmiz. Ammo o`tmish qanday kunlarni boshidan kechirganini ko`rib o`tdik. Bugungi kunlar tengsizdir!

VI. Uy vazifasi:

“Unsinning jasorati” mavzusida uy inshosi yozib kelish.

VII. O`quvchilar bilimini baholash:

Darsda faol ishtirok etgan o`quvchilar baholanib, baholar izohlanadi.

II-bob. 11-SINFDA ABDULLA QAHHOR IJODINI O`RGANISH.

11-sinfda Abdulla Qahhor ijodini o`rganish bo`yicha amaldagi dasturda besh soat vaqt ajratilgan. Bu soatlarning bir soati adib hayotiga doir ma`lumotlar va “Adabiyot muallimi” hikoyasi, ikki soati “O`tmishdan ertaklar” qissasi, ikki soati “Sarob” romani uchun ajratilgan.

1§ “Adabiyot muallimi” hikoyasini tadqiqot metodi asosida o`rganish.

¹“Adabiyot o`qitishda, o`quvchini mustaqil fikrlashga yo`naltirishda tadqiqot metodi o`quv jarayonida bir muncha qiyin bo`lgan nazariy yo`nalishdagi masalalar ko`tarilishini nazarda tutadi. Bu metodda bilim olishning nisbatan yuqori bosqichida ta`limning samarali amaliy va izlanish usullarini mustaqil ravishda qo`llash talab qilinadi. Bunda o`quvchilar dalillar to`plash, nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish kabi amaliy ishlarni bajaradilar. Tadqiqot metodining evristik metoddan farqi shunda ko`rinadiki, “kashfiyot” avvaldan ajratilgan materiallar tahlilidan keyin, faktik materiallar umumlashtirilgandan so`ng amaliy ish jarayonida sodir bo`ladi. Bunda tadqiqot topshirig`i – o`quv-biluv faoliyatining to`liq turkumini o`quvchilar o`qituvchi rahhbarligida o`zlari bajaradilar. Ya`ni ma`lumot to`plashdan tortib uni tahlil qilish va yangi bilimlarni amaliyotda qo`llashgacha bo`lgan ishlarning barchasini o`quvchilar o`zlari mustaqil ravishda amalga oshiradilar. O`quvchilar tomonidan faktik materiallar to`plash tadqiqot metodining zaruriy qismlaridandir. Tadqiqot metodini qo`llashda topshiriqlarning o`quvchilar tomonidan bajarilishi muhim hisoblanadi. Topshiriqlarni bajarishda ularning biror bosqichi tushib qolsa, topshiriq o`z tadqiqiyiligini yo`qotadi. O`quvchilarning rivojlanganlik darajasi mustaqil ravishda tadqiqot ishlarini olib boradigan darajaga yetgandagina, ya`ni ta`lim-

¹“Adabiyot- ma`naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili” Q.Husanboyeva T.2009 y

tarbiya jarayoning yuqori bosqichiga o'tilgandagina tadqiqot metodidan foydalaniladi. Bunda o'quv materiali evristik metodda qanday tuzilgan bo'lsa, shunday qayta tuzilishi kerak bo'ladi. Savollar, ko'rsatmalar, topshiriqlar tartibi ham shunday bo'ladi. Tadqiqot metodini qo'llaganda savol-topshiriqlar bosqichning so'ngida, o'quvchilarning ko'pchiligi muammoni hal qilib bo'lgandan keyin qo'yiladi. Bu kuchli o'quvchilar uchun mo'ljallangan metod bo'lib, muammoni hal etishda o'z-o'zini nazorat qilish va tekshirish usuli sanaladi. Rivojlanishi nisbatan sustroq bo'lgan o'quvchilarga ularning o'zlari darajasidagi topshiriqlar beriladi. Topshiriqlar har bir o'quvchining individual imkoniyatlariga qarab taqsimlanadi. Tadqiqot metodidan nafaqat yangi asarni o'rganish, balki uni mustahkamlash va badiiy tahlil bosqichida ham foydalanish mumkin. Faqat o'qituvchi qo'llash mumkin bo'lgan usullarni to'g'ri aniqlashi, mustahkamlash kerak bo'lgan o'quv materiali mazmunini to'g'ri belgilashi lozim.

Darsning mavzusi: “Adabiyot muallimi” hikoyasi matni ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy**-o'quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, yangi bilim hosil qilish;
- b) **tarbiyaviy**-o'quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, burch hissini singdirish;
- c) **rivojlantiruvchi**-o'quvchilarning mavzu bo'yicha olgan bilimini rivojlantirish, mustaqil fikr ko'nikmasini shakllantirish.

Darsning jihozi: darslik, tarqatma, ko'rgazmali qurollar.

Darsning usuli: suhbat.

Darsning borishi –

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ekologik daqiqa:

-Aziz o`quvchilar, suvni isrof qilmaslik haqida televizor va radio orqali ko`p eshitganmiz. Aytingchi, Orol muammosini hal etish, suvni tejash borasida biz nimalar qilishimiz mumkin?

O`quvchilar suvni tejash, isrof qilmaslik borasida o`z fikrlarini bildiradilar. Ichimlik suvini meyorida ishlatish haqidagi mulohazalarini aytadilar.

II.O`tilgan mavzuni so`rash:

O`tilgan mavzu Muso Toshmuhammad o`g`li Oybekning hayoti va ijodi bo`yicha “Quvnoq startlar” musobaqasi o`tkaziladi. Buning uchun sinf uch guruhga bo`linadi va har bir guruhga o`ziga xos vazifa topshiriladi:

1- “Oybekshunoslar”: Oybekning hayoti va umr yo`liga doir ma`lumotlarni yozadilar;

2- “Shuarolar”: Oybekning nazmiy asarlari bo`yicha ish olib boradilar;

3- “Yozuvchilar”: Oybekning nasriy asarlari asosida fikr bildiradilar.

Vaqt belgilanadi va o`yinga start beriladi. Guruh a`zolari navbati bilan chiqib, tezlikda o`zlariga berilgan topshiriq yuzasidan bittadan fikrni xattaxtaning o`zlari uchun belgilangan joyiga yozadilar va birinchi bo`lib eng ko`p fikr yozgan guruh g`olib deb topiladi.

“Oybekshunoslar”:

- Muso Toshmuhammad o`g`li Oybek 1905-yil Toshkentning Eski shahar qismida hunarmand-bo`zchi oilasida tug`ilgan.

- Ilk ta`limni Toshkentdagi Oqmasjidda olgan.

- 1921-1925 yillarda Navoiy nomidagi ta`lim-tarbiya texnikumida, 1925-1930 yillarda O`rta Osiyo Davlat Universitetida tahsil oldi.

- Oybek madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutida, til va adabiyot institutida ishladi.

- 1968-yil asab zo`riqishi va og`ir hastalikdan vafot etdi.

“Shuarolar”:

- Oybekning ilk to`plami “Tuyg`ular” 1926-yilda nashrdan chiqqan.

- Uning “Ko`ngil naylari” (1929-yil), “Mash`ala” (1932), “Baxtigul va Sog`indiqlar” (1934) she`riy to`plamlari bosildi.

- Oybekning “Uzoqdan turib ...” sheʼri 1928-yil 26-oktabrda Leningradda yozilgan.
- Oybekning “Qizlar” (1947-yil), “Hamza” (1948-yil), “Davrim jarohati” (1952-yil) kabi dostonlari yetib kelgan.
- Oybek Pushkinning “Yevgeniy Onegin” asarini sheʼriy yoʻl bilan oʻzbek tiliga tarjima qilgan.

“Yozuvchilar”:

- “Navoiy” romanini 1944-yilda yozgan.
- Oybekning “Oltin vodiya shabaddalar” (1949-yil), “Quyosh qoraymas” (1959-yil), “Ulugʻ yoʻl” (1957-yil) romanlari; “Nur qidirib” (1957-yil), “Bolalik xotiralari” (1963-yil), “Bola Alisher” (1967-yil) qissalari yetib kelgan.
- Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Oybekning adabiy merosi yigirma jildlik “Mukammal asarlar toʻplami”da eʼlon qilingan (1975-1985-yillar).
- Hamid Olimjon uning ijodiga yuksak baho berib: “Oybek prozada shoiru, poeziyada prozaikdir” – deb aytgan.
- Shoir va tarjimon Naumovning yozishicha, Oybek u bilan suhbatda “Navoiy” romanining yozilish tarixi haqida soʻzlab, asar qahramonlarini aniq koʻraganini, Hirot tushlariga kirib hayolida tiklab olganini aytgan.

Guruhlar oʻz bajargan ishlari yuzasidan muhokama oʻtkazadilar va gʻolib guruh aniqlanadi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Oʻquvchilarga bugungi mavzu Abdulla Qahhor hayoti va uning “Adabiyot muallimi” hikoyasi ekani aytib oʻtilgach, oʻquvchilar 6-7-sinflarda olgan bilimlari asosida adib hayoti va ijodiga doir maʼlumotlarni soʻzlab oʻtadilar. Keyin esa Qahhorning umr yoʻli, “Norin shilpiq”, “Mavlon Kufur”, “Gulyor”, “E-boy”, “Erkaboy” tahalluslari bilan ijod etgani, Chexovni oʻziga ustoz deb bilgani hamda hikoya ustasi ekanligini aytib oʻtaman. Uning “Oʻtmishdan ertaklar” qissasini rus tiliga tarjima qilgan Simonovning uning ijodiga yuksak baho berganini aytib, darslikda berilgan asarlari haqida qisqacha gapirib oʻtaman, shundan keyin “Adabiyot muallimi” hikoyasi bilan tanishamiz:

ADABIYOT MUALLIMI

¹O`zining aytishiga ko`ra “Nafis adabiyot muallimi” o`rtoq Boqijon Baqoyev og`ilga kirib ta`bi xira bo`ldi: Sigirning qulog`iga yana kana tushibdi! Kanadan ham ko`ra sigir uning achchig`ini keltirdi: kanani teray desa qo`ymaydi – boshini silkiydi, pishqiradi.

- Hayvon! Sigir emas, hayvon! – dedi og`ilning eshigini qattiq yopib. – Hayvon!

Xotini Mukarram hovlida samovarga suv quyar edi.

- Hayvon! – dedi Baqoyev, - bu sigirni sotib, puliga cho`chqa olish kerak! ...

IV. Mustahkamlash:

Darsning mustahkamlash qismini “Boqijon Baqoyev tarbiyalagan o`quvchilar qanday odam bo`ladi?” deb nomlaymiz. Uch guruh asosida pedagogik – tadqiqot ishi olib boriladi. Guruhlarga tadqiqot uchun bir necha savollar beriladi va vaqt belgilanadi. Berilgan vaqt davomida guruhlar savollarga atroflicha javob beradilar:

Sigirning qulog`iga kana tushishi munosabati bilan Baqoyevning tabiatiga xos qanday xususiyatlarni ilg`adingiz? Uning cho`chqa boqish haqidagi fikri turfaligini nimalarda ko`rish mumkin?

Baqoyevning Hamidaga qarata: “Kanselyariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo`yibdi. To`g`ri emas. Praktikum, minimum, maksimum – bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin so`zlar” deganiga asoslanib, uning bilimlilik darajasiga baho bering.

Hamidaning Chexov asari tahlili bilan bog`liq savoliga Baqoyevning tomdan tarasha tushganday savol bilan javob berishi nimadan dalolat beradi?

Siz adabiyot muallimining savol alomati hamma vaqt “mi” dan keyin qo`yiladi degan fikriga qanday qaraysiz?

Baqoyevning hech gapdan hech gap yo`q: “Sartarosh bo`lmasa, odamlar maymun bo`lib ketar edi. Maymun juni to`kilib, odam bo`lgan. Bu haqda

¹11 sinf adabiyot darsligi N. Karimov T.2004 y

Engelsning fikri bor...” deyishiga munosabatingiz.

Baqoyevning Hamida qistovidan so`ng “burjua realizmi” haqidagi poyintar-soyintar gaplaridan nimani tushundingiz?

Adabiyot muallimi Baqoyevni xotini Mukarram bilan taqqoslang. Er-xotinning Chexov haqidagi fikrlariga asoslanib, bilimlilik darajasini baholang. O`quvchilar belgilangan vaqt davomida savollarga alohida to`xtaladilar va vaqt tugagach, “Boqijon Baqoyev tarbiyalagan o`quvchilar qanday odam bo`ladi?” savoli yodga olinadi. O`quvchilar o`z maktab hayoti va boshqa bilganlaridan kelib chiqib, salmoqli fikr aytadilar. Yuqoridagi tadqiqot savoli yuzasidan har bir o`quvchi o`ziga hos javob topadi.

V.Darsni yakunlash:

-O`quvchilar, sizlar bugun Abdulla Qahhhorning “Adabiyot muallimi” hikoyasi bilan tanishdingiz. Guruhlar asosida ishlab, Baqoyevning qanday o`qituvchiligi va o`quvchilari taqdirining fojiasi fosh etildi, Baqoyev shaxsi ochildi. Uning o`z sohasi bo`yicha hech qanday bilimga ega emasligini bilib oldik.

VI. Uy vazifasi:

“Men orzu qilgan o`qituvchi” mavzusida uy inshosi yozib kelish va “Sarob” romani haqidagi ma`lumotlarni o`qib kelish.

VII. O`quvchilar bilimini baholash:

Darsda faol qatnashgan o`quvchilarni baholab, baholarni izohlayman.

2§ “Sarob” romanini taqqoslash, qiyoslash metodi asosida o`rganish.

Bu metod yangi bilim va tushunchalarni o`zlashtirishda keng qo`llaniladigan ta`lim metodi hisoblanadi. Yangi o`zlashtiriladigan bilimlarni avvalgilari bilan taqqoslash usuli, o`z navbatida, yangi tushunchalarni mustaqil ravishda tadqiq qilishning bir ko`rinishidir. Taqqoslash metodi asosida o`quvchilarda sinfdoshlarining isbot va dalillariga o`zlarining mantiqiy qarashlarining qarshi qo`yilishiga intilishlari yotadi. Mavzularni taqqoslash asosida isbotlashning o`qituvchi tomonidan o`quv materialini tanlash ham, uning o`quvchilar

tomonidan egallanishi ham juda qiyin kechadi. Sababi, bu usuldan hamisha har xil vaziyatlarda, holatlarda foydalanishga to'g'ri keladi. Qiyin mavzularni taqqoslab o'zlashtirish bilim egallashda unchalar qiynalmaydigan o'quvchilardan ham anchagina fikriy zo'riqishni talab qiladi. Adabiyot darslarida bu metoddan foydalanilganda o'qituvchi o'quvchilardan matnda mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklarni taqqoslash bilan isbotlab ko'rsatishni talab qilishi ham mumkin. O'qituvchi tomonidan shunday savol yoki masalaning qo'yilishi, farazlarning ilgari surilishi, ulardan birining to'g'riligini isbotlash fikrlar to'qnashuvi asosida amalga oshadi, mustaqil faoliyat asosida mustahkamlanadi. Bu metod ham bilimli o'quvchilarga mo'ljallangan bo'lib, ko'p vaqt, bilim va malaka talab qiladi. Bu metoddan qator obrazlarni taqqoslab, o'quvchilarni inson shaxsini o'rganishga, fazilatlarini ochishga o'rgatish mumkin bo'ladi.

Darsning mavzusi: “Sarob” romani matni ustida ishlash

Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy** – o'quvchilarni asar matni bilan tanishtirish, yangi bilim hosil qilish, matn ustida ishlashga o'rgatish;
- b) **tarbiyaviy** – o'quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar va odob- axloq asosida tarbiyalash;
- c) **rivojlantiruvchi** – o'quvchilarning mavzu bo'yicha olgan bilimini rivojlantirish, mustaqil fikr ko'nikmasini shakllantirish.

Darsning jihozi: Darslik, qo'shimcha adabiyotlar, ko'rgazmali qurollar.

Darsning usuli: suhbat

Darsning borishi –

I. Tashkiliy qism: salomlashish, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorligini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma'naviyat daqiqasi:

“Kitob bizning do'stimiz!”

- Aziz o'quvchilar, bugungi ma'naviyat daqiqamizni “Kitob bizning do'stimiz” deb nomladik.

- O'quvchilar, qaysi shoir va yozuvchilar asarlarini sevib o'qiysizlar?
- So'nggi o'qigan asaringiz qaysi?
- Uyingizda kutubxonangiz bormi, qanday kitoblaringiz bor?
- Qanday kitoblar o'qishni xohlaysiz?

O'quvchilar fikrini tinglab, fikrlarni umumlashtiraman.

II. O'tilgan mavzuni so'rash:

Uy vazifasi yuzasidan o'quvchilarga uy inshosi berilganligi sabab, uy insholarini yig'ib olamanda o'qib chiqgach, fikr bildirishimni aytaman. O'tilgan mavzu bo'yicha "savol bizdan-javob sizdan" mashqi asosida og'zaki savol-javob qilaman va o'tilgan mavzuni mustahkamlayman:

1. Boqijob Baqoyev o'zini qanday muallim deb hisoblaydi?
2. Sigirni koyishi va o'z fikrini inkor qilishini qanday tushundingiz?
3. Hamidani qanday qiz deb o'ylaysiz?
4. Lotincha so'zlar haqida aytgan fikri to'g'rimi?
5. Hamidaning domlasi Hakimovga Boqijon Baqoyevning bildirgan fikri to'g'rimi?
6. Adabiyot muallimining Chexovni tanimasligiga fikringiz?
7. Boqijon Baqoyevning noqulay ahvolga tushishi va darrov gapni to'g'irlashiga munosabatingiz?
8. "Uyqu istagi" hikoyasi bo'yicha bergan savoliga Hamida javob ololdimi?

O'quvchilar fikrini jamlab o'z fikrimni bildiraman.

III. yangi mavzu bayoni:

Aziz o'quvchilar, bugun sizlar bilan atoqli adibimiz Abdulla Qahhorning "Sarob" romanini o'qiymiz. Asar o'qishdan avval, u haqida bildirilgan fikrlar, bahslar haqida eshitsak-a? Adibning o'zi "Sarob" romani haqida shunday degan: **"Sarob" yigirma yil tanqid ta'qibida bo'ldi. "Sarob"ni ilk bor bosib chiqqanda sochimda birorta ham oq tola yo'q edi. "Sarob" tufayli yigirma yil boshimda tanqid tayog'i sinaverib, sochimning birorta ham qora tolasi qolmadi... "Sarob" tevaragidagi janjallardan birida tuppa-tuzuk tanqidchi meni murosaga chaqirib: "Tuflab tashlangan narsani qayta og'izga olmay qo'ya qoling endi", deganida o'zimni tuta olmay:**

“Avvalo, “Sarob” hecham tuflashga loyiq asar emas. Agar tuflash kerak bo’lsa, “Sarob”ni tan olmaydigan, tushunmaydigan, johil, nodon, chalasavod, demagog tanqidchilarning yuziga tuflayman!” deb yuboribman. Zamon “Sarob” xalqqa, jamiyatga kerak asar ekanini tasdiqladi.”

¹Said Ahmad fikri: “Gapning rostini aytsam, “Sarob” mening eng sevimli kitobim edi. U meni adabiyotga boshlab kirgan usozim edi. Men uhun butun dunyoda sarobga teng keladigan kitob yo’q edi. Uni yomon deydigan odamni bo’g’ib tashlashga tayyor edim. Men sarobni yoddan aytib bera olar edim. So’zma-so’z, jumlama-jumla, biror so’zini tushurib qoldirmay yodakisiga ayta olardim.”

Aziz Abdurazzoq fikri: Uchrashuvlardan birida Abdulla akaga bir kitobxon:

- “Sarob” romaningizning davomini qachon o’qiymiz? – deb savol berib qoldi.

- O’qimaysiz, - dedi muallif, - chunki yozmayman. Yozmasligimning sababi ‘Sarob’ meni qaritdi, “Sarob” uchun meni o’n sakkiz yil tepkilashdi. Vaholanki, tepkilashning hech bir hojati yo’q ekan. Roman haq ekan, mana qayta yuzaga chiqdi. Agar tepkilashmaganida yozgan bo’lardim...

Ko’rdingizmi, jaholat tufayli butun boshli asar dunyoga kelmay qoldi...”

Pirimqul Qodirov fikri: “Tilda, tasviriy vositalar tanlashda Abdulla akaning eng yaxshi an’analariga kuchim yetganicha amal qildim, ammo “Sarob”dagi psixologik teranliklar, ayniqsa, salbiy qahramonlarni ichdan ko’rsata olish san’ati men egallashim mahol bo’lgan marralar edi...”

Nima uchun “Sarob”ni o’sha vaqtlar taqiqlashdi, ammo u qiymatini yo’qotmadi, har doim sevimli bo’ldi? Keling, “Sarob”dan berilgan parchani o’qiymiz:

¹“Adabiyot –ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili” Q.Husanboyeva T. 2009. y

SAROB

(romandan parcha)

¹... Shunday qilib, bular juda inoqlashib ketishdi. Qachondandir boshlab bir-birini sensiraydigan bo'ldi. Saidiy Munisxonni o'zining ko'ziday ehtiyot qilar, unga bor-yo'g'ini berganida ham hech narsa talab qilmas edi. Munisxon ham bunga tushunadi, ammo bu inoqlikka “shunday, orada hech gap yo'q, istasam shu daqiqadan boshlab undan yuz o'gira olaman” deb qarardi, lekin shunday bo'lsa ham Saidiyning boshqa qizlar bilan kulibroq so'zlashganini ko'rsa chehrasi buzilar edi...

IV. Mustahkamlash:

-Aziz o'quvchilar, parcha bilan tanishdingiz, Saidiy va Munisxonlarning o'zaro munosabatlari, qarashlarini ko'rib o'tdingiz. Biroq munosabatlardagi qarama-qarshiliklar e'tiboringizni jalb etgan bo'lsa kerak. Kelinglar, bu haqda fikr yuritib ko'ramiz:

1. Saidiyning boshqa qizlar bilan kulibroq so'zlashganini ko'rsa chehrasi buziladigan Munisxon nima uchun istagan paytda undan yuz o'girib keta olishiga ishonadi?
2. Saidiyning Munisxonni o'zining ko'ziday ehtiyot qilishi, uning yangilik haqidagi qarashlari, xotin-qizlarga munosabat haqidagi fikrlarining originalligi haqida fikringiz?
3. Saidiyning gul va ko'ngil haqidagi qarashlariga munosabatingiz?
4. Munisxon boy xonadonning farzandi, Saidiy esa uning aksi, ammo qarashlari hamohang, ziyoli. Munisxonning Saidiyga “Men senga tegmaymangga” deyishiga sabab nima?
5. Munisxonning Saidiyga ko'ngli bo'lgani holda uning tuyg'ulari bilan o'ynashadi, Saidiyning fojeasiga Munisxonning mana shu so'zlari sabab bo'lishi mumkinmi?

¹11 sinf adabiyot darsligi N. Karimov T.2004 y

6. Rahimjon nima uchun Munisxonning gapiga iljayib qo'ya qoldi? Saidiyning o'rnida boshqa odam bo'lsa, nima qilishi mumkin edi?

		2					1		E			
3	U	N	S	I	N			G				
	4	Q	O	B	I	L		A				
6			T	5			H	A	M	I	D	A
	S	A	I	D	I	Y		B				
	7		B	A	Q	O	Y	E	V			
	8	D	O	D	X	O		R				
9			L					D				
	A	B	D	U	G'	A	N	I	B	O	Y	
10	M	U	N	I	S	X	O	N				

O'quvchilar o'z fikrlarini aytib, izohlashga urindilar. Bu holda fikrlar qarama-qarshiligi bo'lishi tabiiy, bunda qarshi fikrlarni izohlashga chorlab, har bir fikr muallifiga fikrini asoslab berishini so'rayman. Fikrlarda noto'g'ri yo'nalishda ketayotganini bilgan holda to'g'ri yo'nalish ko'rsatib, tushuntirish ishlarini olib boraman. Keyin esa Qahhor asarlari qahramonlarining qay darajada esda saqlab qolganlarini bilish maqsadida krossvord beraman:

1. “O’g’ri” hikoyasi qahramonining so’nggi ilinji;
2. “Bemor” hikoyasi qahramoni;
3. “Dahshat”dagi jasoratli ayol;
4. “O’g’ri” qahramoni;
5. “Adabiyot muallimi”gi o’quvchi qiz;
6. “Sarob”dagi bosh qahramon;
7. Nafis adabiyot muallimi;
8. “Dahshat”dagi xonadon sohibi;
9. Sotiboldining xo’jayini;
10. “Sarob”dagi Rahimjonning sevgilisi.

V. Darsni yakunlash:

-Qadrli o'quvchilar, bugun biz xalq ardog'idagi ijodkor Abdulla Qahhorning "Sarob" romani bilan tanishdik. Saidiy va Munisxon munosabati,

ularning qarashlari hamda ziddiyatlarini ko'rib o'tdik, mulohaza yuritdik. Demak, inson taqdirida turli chizgilar bor, taqdirida o'zigina emas, tevarakatrofning ham bevosita aloqasi borligini angladik.

VI. Uy vazifasi:

“O'tmishdan ertaklar” qissasi haqida darslikda berilgan ma'lumotlarni o'qish, “Mening Saidiy va Munisxonga munosabatim” mavzusida kichik matn yozib kelish.

VII. O'quvchilar bilimni baholash:

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilarni baholayman va baholarni izohlayman.

3. § “O'tmishdan ertaklar” qissasini “Agar men...” texnologiyasi asosida o'rganish.

“Agar men...” texnologiyasi noan'anaviy dars turlaridan bo'lib, uning bosh maqsadi o'quvchilarni ijodkorlikka undash va qahramonga yaqinlashtirishdan iborat. “Agar men...” texnologiyasi asosida o'quvchi bevosita asarga kirib boradi, qahramonining dardini, alami, quvonchu-tashvishini chuqur his qila boshlaydi. “Agar men...” texnologiyasining afzaligi shundaki, bunda ma'lum bir faol o'quvchilar guruhi qamrab olinmaydi ya'ni u faollar uchun qulay, faol o'quvchilarga mo'ljallangan, ular tez tushunuvchi emas, balki barcha o'quvchilar uchun birday tushunarli va qo'llash mumkin bo'lgan dars turidir. Bu texnologiya orqali har qanday darsga qiziqmaydigan loqayd o'quvchini ham jalb qila olsa bo'ladi. Bunda o'qituvchi voqealar rivojini o'quvchining yuragiga yetkazib o'qib yoki hikoya qilib berishi va qahramonning ruhiy holatini o'quvchilarga ko'chirishi maqsadga muvofiqdir. Mana shu, aynan, o'quvchi ta'sirlangan nuqtada qahramonning vaziyatini o'quvchiga tashlash va vaziyatining yechimini birgalashib topish asnosida muvaffaqiyatga erishiladi. Xatto darsga eng e'tiborsiz o'quvchi bo'lsa ham, bu texnologiya uni qiziqтира oladi. Bunda qahramon uning tengdoshi bo'lishi yanada qulay. Chunki tengdoshining o'rnida bo'la olish qiyinchilik tug'dirmaydi.

Darsning mavzusi: "O'tmishdan ertaklar qissasi matni.

- a) **ta'limiy**-o'quvchilarga qissa haqida ma'lumot berish, matn ustida ishlash orqali asar g'oyasini singdirish;
- b) **tarbiyaviy**-o'quvchilarni ezgu insoniy fazilatlar asosida tarbiyalash;
- c) **rivojlantiruvchi**-o'quvchilarning mavzu bo'yicha olgan bilimini rivojlantirish, mustaqil fikr ko'nikmasini shakllantirish.

Darsning jihozi: darslik, ko'rgazmali qurollar, qo'shimcha adabiyotlar.

Darsning usuli: savol- javob.

Darsning borishi –

- I. Tashkiliy qism:** salomlashish, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish, davomatni aniqlash.

She'riyat daqiqasi:

- Aziz o'quvchilar, she'riyat inson qalbini go'zallikka burkovchi, uni yomonliklardan saqlaguvchi manbadir. She'riyat orqali inson qalbi ezgulikka to'ladi, barchaga yaxshilik sog'inadi. Hozir navbati bilan barchamiz darslikdan yod olgan she'rlarimizdan aytamiz. To'liq aytishimiz shart emas, to'rt satr bo'lsa ham aytamiz va o'tilganlarni takrorlab olamiz.

(O'quvchilar bu o'quv yilida yod olgan she'rlardan aytadilar.)

II. O'tilgan mavzuni so'rash:

"Adabiyot muallimi" hikoyasi o'tilgan kuni uy inshosi berilgan edi va men uni o'qib kelgach, fikr bildirishimni aytgan edim. Ushbi vazifa yuzasidan fikr bildiraman, ya'ni ijodiy yondashib yetuk yozganlarni taqdirlab, sayoz yozganlarga yo'nalish berish orqali tushuntirish ishlarini olib boraman. O'tgan uy vazifasi ya'ni ijodiy matnligi sabab, ularni yig'ib olaman va o'qib chiqgach fikr bildirishimni aytaman.

O'tilgan mavzu bo'yicha ya'ni "Sarob" romanini mustahkamlash uchun sinf uch guruhga bo'linadi va guruhlariga bir necha muammoli savollarni kartochka holida beraman va vaqt belgilayman:

1. Munisxon nega rus qizlarini imkoniyatiga havas qilib nolidi?

2. O'zaro bir-birlarini sensirashlariga qanday qaraysiz?
3. Saidiyning "har bir yangilik qarshilikka uchraydi" fikri to'g'rimi?
4. Xotin-qizlarga qarashda eskilik sarqiti hozir ham bormi?
5. Munisxonning eslaganiga asoslanib, uning otasi haqida qanday fikr bildirasiz?
6. Munisxonning otasi haqida armon bilan eslashiga qanday qaraysiz?
7. Yaqinlaridan bir zumda ayrilgan Munisxon sizningcha qanday qiz?
8. "Yuz yil piyoda yurib, fil minib, ot o'ynatsam,

Ajal o'yinchi bo'lib bir kuni qilur meni mot" jumlasidan qanday ma'no kashf etdingiz?

9. Saidiy hayot abadiyligi, Munisxon esa umr o'tkinchiligi haqida fikr bildiradi. Sizningcha qanday?
10. Saidiyning Munisxonga ko'ngli borligi aniq, Munisxoning ham ko'ngli Saidiyda ekanini qaysi so'zlardan bilsa bo'ladi?
11. Saidiyning o'z joniga qasd qilish haqidagi fikri nima tufayli paydo bo'lgan?
12. Saidiyning hayotiy qarashlari to'g'rimi?

(Guruhlar javobini tinglab, javobsiz qolgan savollarga birgalikda javob beriladi.)

III. Yangi mavzu bayoni:

-Xurmatli o'quvchilar, biz sizlar bilan O'zbekiston xalq yozuvchisi, yetuk adib Abdulla Qahhorning "Adabiyot muallimi" hikoyasi va "Sarob" romanini ko'rib o'tdik. Endi esa adibning o'z tilidan hikoya qiluvchi avtobiografik asari hisoblangan "O'tmishdan ertaklar" qissasi bilan tanishamiz, sizlar qissa haqida darslikdan o'qigansiz va oz muncha ma'lumotga egasiz. Endi esa qissadan berilgan parcha bilan tanishamiz, mutolaa davomida men aytgan o'rinlarga belgi qo'yib keting:

O'TMISHDAN ERTAKLAR

(“ Hur qiz” parchasi)

Qo'qonga tush mahalida kirib keldik. Ko'chalarda odam ko'p, xuddi Yaypanning bozor kuniga, yo'q, hayitiga o'xshaydi. Jangir-jungur izvoshlar,

eshak arava, gumbur- gumbur to'p ovozlari, soyabon aravalar ko'p, onda sonda ot yoki odam qo'shilgan eshak aravalar ham ko'rinib qoladi. Ko'chaning ikki beti to'la lapka, do'kon; temirchilar, miskarlar taraqatgani-taraqatgan. Yasanib nag'ma chalib kelayotgan bir bolani ko'rib qoldim. Bir joyga kelganimizda xuddi azaga kelgan bir hovli xotin baravariga uvvos tortib yig'lagandek vahimali bir tovush eshitildi. Men hayron bo'lib qolgan edim, dadan: "Qo'rqma, zovut, Mirabiboyning zovuti, odam chaqiryapti",-dedi.

IV. Mustahkamlash:

Ostiga chizilgan jumlar asosida o'quvchilar bilan uch guruh asosida matn ustida ishlaymiz. Buning uchun o'quvchilarga bir nechta savollar beriladi:

1. Eshak aravaga odam qo'shilganiga qanday qaraysiz?
2. Zavodning gudogini adib qanday tasvirlagan?
3. G'afforjon tabiatdan qanday bola? Buning sabablari nimada deb o'ylaysiz?
4. Hikoya qahramoni kichik Abdulla qanday bola?
5. Abdullani atayin Sarvinisoning azob- uqibatlariga sabab bo'layotgan Azimni ko'rgani borishi tabiatidagi qanday hislatni ko'rsatadi?
6. Yosh Abdulla nega o'z buvisini hikoya davomida kampir degan yoki unutganmi?
7. Sarvinisoning tabiati qanday, izohlang?
8. Sarvinisoning Azimga tegmaslik uchun qilgan harakati qanday, boshacha usul qo'llasa ham bo'larmidi?
9. To'ydan kim manfaatdor?
10. O'z qizini o'ladigan darajada urgan ota uning azasida behush yiqilishi ishonchlimi?
11. Adibning Sarvinisoga munosabati qanday?
12. Qirq qizlar afsonasi adibga qanday ta'sir qildi?

Guruhlar kelishib savollarga atroflicha javob beradilar, guruhlar javobini muhokama qilib, mustahkamlayman, fikrlarni jamlayman.

V. Darsni yakunlash:

-Aziz o'quvchilar, bugun biz "O'tmishdan ertaklar" qissasining "Hur qiz" parchasi orqali adibning bolaligi, davr ruhi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik.

VI. Uy vazifasi:

Uyga vazifasi qilib "Sarviniso jaholat qurbonimi yoki davrning?" mavzusida uy inshosi yozib kelish.

VII. O'quvchilar bilimini baholash:

Eng faol guruh aniqlanadi, boshqa guruhlar yordamida taqdirlanadi. Darsda faol qatnashgan talabalar baholanib, baholar izohlanadi.

III. Bob. Akademik litseyda Abdulla Qahhor ijodini o'rganishning ilg'or usullari.

Akademik litseyda Abdulla Qahhor ijodini o'rganish II bosqichda berilgan bo'lib, 4 soat ajratilgan. Akademik litseyda juftlik soat bo'lganligini hisobga olib, 1-juftlik soat "Sarob" dan berilgan parchani o'rganish uchun sarf qilinsa, 2-juftlik soatda "Adabiyot muallimi" hamda "Millatchilar" hikoyasini o'rganish uchun ajratiladi.

1. § Sarob romanini "6x6x6" metodi asosida o'rganish

¹**"6x6x6" metodi.** Adabiy ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan metodlarning yana biri "6x6x6" metodidir. Adabiy asarlar tahlili jarayonida mazkur metoddan foydalanishda adabiyot o'qituvchisidan pedagogik mahorat va ziyraklik, guruhlarini oqilona shakllantira bilish talab qilinadi. Jami 36 o'quvchi ishtirok etadi. Guruhlarga muayyan nomlar beriladi. Dars mavzusi e'lon qilinib, ma'lum vaqt belgilanadi. O'quvchilar mavzu atrofida bahslashadilar, o'z munosabatlarini bildiradilar. Mavzu bo'yicha belgilangan vaqt yakunlangach, o'qituvchi guruhlarining a'zolarini almashtiradi. Yangi guruhga avvalgi guruhdan bitta vakil qoladi va u o'z guruhining mavzu yuzasidan chiqargan hulosalarini yangi guruhga bayon etadi.

¹"Adabiyot –ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili" Q.Husanboyeva T. 2009. y

Yangi guruh a'zolari avvalgi guruhning fikr va xulosalarini o'rganadilar, unga o'z munosabatlarini bildiradilar. Shu tariqa qisqa vaqt oralig'ida o'quvchilar tomonidan ham mavzu yuzasidan fikr bildiriladi, ham bu fikrlar ularning o'zlari tomonidan tahlil qilinadi.

Sinfdagi o'quvchilarni kichik guruhlar tashkil etishda quyidagilarga amal qilinadi: 1. Guruhlar o'qituvchi tomonidan belgilanadi. 2. Guruhga rahbarlik qila oladigan o'quvchi guruh a'zolari tomonidan oldindan aniq belgilab olinadi. 3. Har bir guruhga zehni va qobiliyatli hamda bo'shroq o'zlashtiradigan o'quvchilar, imkon qadar, teng taqsimlanishiga harakat qilinadi. Guruhlar bir-biriga munosib a'zolar bilan to'ldiriladi va vazifalari belgilanadi. 4. guruh rahbari va a'zolari vazifalari tushuntiriladi. 5. har bir guruh doira shaklda o'tirishi, guruhning har bir a'zosi bir-birini ko'rib turishi shart. 6. ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalariga e'tibor berib boriladi. Yaxshi g'oya egalari rag'batlantiriladi.

Bunday guruhlarni tashkil etishda avval: o'quvchilarning shu ishni bajarishga bilim va malakalari yetarliligiga ishonch hosil qilish; guruhlarga aniq yo'l-yo'riqlar ko'rsatish; vazifaning bajarilishi uchun yetarli vaqt ajratish; o'z vazifasini vaqtidan ilgari bajargan guruhning bandligini taminlashga tayyor bo'lish; qo'yiladigan masala murakkab bo'lganda guruh a'zolari sonini kengaytirish; baholash va mukoflash jarayonining guruh a'zolariga ta'siriga tayyorlanish; kuchli guruhlarni mukofotlash; bajarilgan ish natijasini qanday topshirish yo'llari haqida o'ylab ko'rish va ma'lum qilish; jamoaning erkinligiga imkoniyat yaratish kerak bo'ladi.

Bu metoddan foydalanilganda o'quvchilar guruhini bunday aralash tarzda tashkil etishning o'ziga yarasha salbiy tomonlari ham mavjud. Ma'lumki, aralash guruhlarda ko'proq kuchli o'quvchilar ishlaydi. O'rtacha va bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilar ularning oldida "yumilib" qoladilar. Chunki vaqt tig'iz bo'ladi. Demak, hamma o'quvchilar darsda faol qatnashmaydilar. Shuning uchun sinfdagi kuchli, tez fikrlaydigan, tez ishlaydigan mazkur o'quv fanini yaxshi ko'radigan o'quvchilarni alohida, yaxshilarini alohida, o'rtachalarini alohida va sekin fikrlaydiganlarni alohida guruhlashtirib, har bir

guruhga o'zining imkoniyati doirasidagi vazifani berish ham mumkin. Ma'lumki, o'quvchilar o'zlariga o'xshagan, bilim darajasi bir xil bo'lgan sinifdoshlari bilan yaqin bo'ladilar. O'z davralarida "ochiladi"lar. Bu ochilish ularda shaxslik sifatlarining shakllanishiga ko'maklashadi. Guruhlarning bilimi baholanayotganda urg'u berilgan topshiriqning qiyinlik darajasiga qaratiladi. Hamma guruh uchun ajratilgan vaqt bir xil, lekin topshiriqlarning darajasi har xil. Gap shundaki, hamma o'quvchilar belgilangan vaqt oralig'ida o'z imkoniyatlari doirasidagi vazifani muvaffaqiyatli uddalaydilar va g'alaba nashidasini suradilar.

Darsning mavzusi: Abdulla Qahhorning "Sarob" romani matni utida ishlash.

Darsning maqsadi:

a) **t'limiy** - talabaga "Sarob" romani haqida ma'lumot berish, asar matni bilan tanishtirish;

b) **tarbiyaviy** - talabalarni ezgu insoniy fazilatlar asosida tarbiyalash;

c) **rivojlantiruvchi** - o'quvchilarning mavzu bo'yicha olgan bilimini rivojlantirish, mustaqil fikr ko'nikmasini shakllantirish;

Darsning usuli: suhbat, javol-savob.

Darsning jihozi: darslik, qo'shimcha adabiyotlar, A-4 formatdagi qog'oz.

Darsning borishi-

I. Tashkiliy qism: salomlashish, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma'naviyat daqiqasi:

-Vatan bu - biz tug'ilib o'sgan tuproq, kindik qonimiz to'kilgan muqaddas go'sha, ajdodlarimiz o'tgan aziz maskandir. Bizning O'zbekiston deya atalmish jannatmonand yurtimiz bor. Bizning vatanimizda barcha go'zal narsalar mujassam- qish qori bilan, bahor yomg'iri bilan, yozi oftobiylu, kuz serhosilligi, musaffo havo ham bunda bor. Biz shuning uchun ham jannatmonand yurt deymiz uni.

-Aziz talabalar, sizlar vatanga qanday ta'rif bera olasizlar, vatanimizning qanday bebaho hislatlari uchun bunchalar sevamiz?

Talabalar vatanga ta'rif, uning yer ustki va ostki boyliklari, purviqor tog'lari-yu bog'u-rog'lari haqida gapirib o'tadilar.

II. O'tilgan mavzuni so'rash:

(O'tilgan mavzu Oybekning "Mashrab" va "Namatak" she'rlari edi. She'rlarni talabalardan yoddan so'rayman. She'r badiiyati yuzasidan suhbatlashaman.)

III. Yangi mavzuni bayoni:

-Aziz talabalar, bugun biz sizlar bilan buyuk adib, el ardog'idagi ijodkor, O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning "Sarob" romanidan berilgan parcha bilan tanishamiz. Sizlar Abdulla Qahhorning hayoti va ijod yo'li, uning hikoyalari bilan 6-7 sinflarda maktabda tanishgansizlar hamda u haqida sizlarda ma'lumot bor.

(Talabalarga Abdulla Qahhor hayoti va ijodiga doir savolllar berib o'taman va "Savol bizdan-javob sizdan" mashqi asosida tezkor savol-javob qilaman.)

1. Abdulla Qahhor qachon va qayerda tug'ilgan?
2. Adibning bolaligi qayerlarda o'tgan?
3. Abdulla Qahhorning otasi kim bo'lgan?
4. Adibning biografik asarlari qaysilar?
5. Ijodkor qayerlarda tahsil olgan?
6. Abdulla Qahhor qanday taxalluslar bilan ijod qilgan?
7. "Sarob" romani qachon yozilgan?
8. Abdulla Qahhorning qanday sahna asarlarini bilasiz?
9. Abdulla Qahhor qayerlarda ishlagan?
10. Abdulla Qahhor qachon vafot etgan, unga qanday unvonlar berilgan?

Talabalar Abdulla Qahhor hayotiga doir ma'lumotlar eslab o'tishgach, bugungi mavzu "Sarob" romanidan berilgan parcha bilan tanishishga o'tiladi.

SAROB

(Romandan parcha)

¹ Yozgi ta'tilda Munisxon akasi bilan Qrimga ketib, Saidiy shaharda yolg'iz qoldi. Uning boradigan yeri, so'zlashadigan kishisi yo'q; kuni bo'yi hujrasida o'tirib turli yozuvchilarning maqtalgan asarlarini o'qish va hikoya yozish bilan vaqt o'tkazar edi. Yana bir muncha she'r va hikoyalarini o'sha jurnalga yubordi.

Bu jurnal yozuvchilarni uch turga bo'lib, asarlarini taqdim qilardi: talantli shoirlar, tarbiya va kengashga munosib yosh qalamkashlar va havaskor yozuvchilar. Saidiy esa so'ngisiga ham kirmas, uning ismi mudom oxirgi sahifada "bosilmaydi" so'zi bilan zikr qilinardi. Saidiy umidsizlanmadi. Chunki o'zi yolg'iz emas, "bosilmaydi" degan so'z boshqa yana yigirmalab ismlarga ulanar edi.

IV. Mustahkamlash:

(Talabalarni olti guruhga bo'laman va har bir guruhda oltitadan talaba bo'ladi. guruhlarni nomlayman:)

"Navoiy avlodlari-1",

"Bobur avlodlari-2",

"Lutfiy avlodlari-3",

"Ogahiy avlodlari-4",

"Mashrab avlodlari-5",

"Gulhany avlodlari-6",

Guruhlar aylana holida joylashadilar. Guruhlarni bunday nomlash asnosida ana shunday buyuk ajdodlarga munosib bo'lishi uqtiriladi va ishga kirishiladi.

(Guruhlarga quyidagi savollarni beraman va vaqt belgilayman:)

1. Nega Saidiy asarlari "bosilmadi" tarzida baholanib turgani holda keyin bosila boshlandi? Yaxshi asar bosilib chiqishi uchun nimalar zarur?
2. Ulfat va Shafrinni solishtiring, ular qanday insonlar? Saidiy odamlarning qandayligini baholay olmaydimi?


¹"Adabiyot –ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili" Q.Husanboyeva T. 2009. y

3. Salimxoning Saidiyga munosabati qanday? Salimxon Saidiydan biror manfaat kutadimi?
4. Saidiyning Salimxon bilan yaqinlashuvi va turli mavzularda bahs yuritishi qanday ma'noni anglatadi? Salimxoning zamon bilan teng yurishi uning qanday hislatidan darak beradi?
5. Saidiyning yuragida umid uyg'otgan Kenjani ijobiy baholay olasizmi? Nega Kenja Saidiyga bucha yaxshiliklar qilyapti va bosilmagan asarlari yuzasidan nimalar oshkor bo'ldi?
6. Ilhomni iste'dodli deya olamizmi? Saidiy nega hammaga birday ishonadi?

(Guruhlar savollar ustida ishlagach, guruhlarga berilgan savollar yuzasidan taqdimot o'tkazadilar va o'z fikrlarini dalillaydilar. Guruhlarda qarshi fikrlar bo'lsa, bildiradilar va asoslashga urinib ko'radilar.)

Mustahkamlashning keyingi bosqichida “sinchkovlik” mashqi o'takazaman. Bunda “Sarob” romanida berilgan parcha asosida qahramonlar hislatlarini yoritishga harakat qiladilar.

“U qanday inson?”



Guruhlar ushbu qahramonlarga hos hislatlarni aytadilar va matn asosida asoslaydilar.

V. Darsni yakunlash:

-Aziz talabalar, bugun sizlar bilan atoqli adib, mohir hikoyanavis, el ardogʻidagi yozuvchi Abdulla Qahhorning “Sarob” romanidan berilgan parcha bilan tanishdik, undagi voqealar guvohi boʻldik.

VI. Uy vazifasi:

“Sarob” romani asosida “Menga yoqqan qahramon” mavzusida matn yozib kelish.

VII. Oʻquvchilar bilimni baholash:

Eng faol guruh aniqlanadi, boshqa guruhlar yordamida taqdirlanadi. Darsda faol qatnashgan talabalar baholanib, baholar izohlanadi.

2 §. “Millatchilar” hikoyasini induktiv metod asosida o’rganish.

¹**Induktiv va deduktiv metod.** O’qituvchini mustaqil mulohaza yuritishga o’rgatishda ta’limning induktiv, deduktiv metodlarining ham o’ziga hos o’rni bor. So’nggi yillarda deduktiv ta’limga etibor kuchaydi. Bu ta’limdan induktiv yondashuvni chetlatish degani emas, albatta. Tafakkurning induktiv usullarini shakllantirmay turib, ta’limda yoki mustaqil mulohaza yuritishga o’rganishda muvaffaqiyatlarga umid qilish mumkin emas. Induktiv yoki deduktiv metodlarni qo’llash o’rganilayotgan o’quv materiallarini mantig’ini ajratishda, ya’ni xususiydan umumiyga yoki umumiydan xususiyga o’tishda ahamiyat kasb etadi.

Yu. Babanskiy induktiv metodni qo’llaganda o’qituvchi va o’quvchi faoliyatining quyidagi ikki varianti mavjudligini ko’rsatdi: birinchi variyatta o’qituvchi avval faktlarni keltiradi, tajribani, ko’rgazma materiallarini namoyish etadi, topshiriqlarni bajarishni tashkil qiladi, o’quvchilarni asta sekinlik bilan tushunchalarini aniqlashga, qonuniyatlarni sekinlik bilan o’zlashtirish va fikrlarni umumlashtirishga olib boradi. O’quvchilar xususiy faktlarni o’zlashtiradilar, o’quv xarakteridagi umumlashma xulosalarni chiqaradilar. Ikkinchi vaziyatda o’qituvchi o’quvchilarning oldiga xususiy jihatlardan umumiy holatlarga yetaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masalalarni qo’yadi. O’quvchilar faktlar ustida mustaqil ravishda mulohaza yuritadilar va xulosalar chiqarib, umumlashtirmalar qiladilar.

Bugungi adabiy ta’limda o’quvchi ma’naviy kamolotini ta’minlash maqsadida mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga undash yetakchilik qilayotgan ekan, induktiv metodning birinchi varianti mutlaqo to’g’ri kelmaydi. Ikkinchi variant-o’qituvchining xususiy jihatlaridan umumiy holatlarga yetaklovchi, umumiy xulosalarga olib keluvchi muammoli masalalarni qo’yishi va o’quvchilarning haqiqatlar ustida mustaqil ravishda mulohaza yuritib, xulosalar chiqarib, umumlashmalar qilishi ko’proq samara beradi.

¹ “Adabiyot –ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili” Q.Husanboyeva T. 2009. y.

Induktiv metodning zaif tomonlari shundan iboratki, unda yangi mavzuni o'zlashtirishda deduktivga nisbatan ko'proq vaqt talab qilinadi. Bu metod o'quvchining ma'lum darajada tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi. Maktab adabiy ta'limi hamda akademik litseylarda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish uchun quyi sinflarda induktiv metoddan foydalanib, sinflar yuqorilab borгани sari asta-sekinlik bilan deduktivga o'tish o'rinliroq bo'ladi. Chunki quyi sinflarda harsa, hodisa va bilimlarning ko'proq xususiy tomonlari o'rganiladi.

Darsning mavzusi: "Millatchilar" hikoyasi matni ustida ishlash.

Darsning maqsadi:

- a) **ta'limiy** - talabalarni hikoya matni bilan tanishtirish, hikoya bo'yicha tushuncha hosil qilish;
- b) **tarbiyaviy** - talabalarni yuksak insoniy fazilatlar va ezgu qadriyatlarga hurmat asosida tarbiyalash;
- c) **rivojlantiruvchi** - talabalarning mavzu bo'yicha olgan bilimni rivojlantirish, mustaqil fikr ko'nikmasini shakllantirish;

Darsning usuli: suhbat.

Darsning jihozi: darslik, qoshimcha adabiyotlar, ko'rgazma qurollar.

Darsning borishi-

Tashkiliy qism: salomlashish, sinf va talabalarni darsga tayyorgarligini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma'naviyat daqiqasi:

" Inson nimasi bilan go'zal ? "

-Aziz talabalar, biz go'zallik degan so'zni hayotimizda ko'p uchratamiz va bu so'zga turlicha yondashamiz. Go'zal inson deganda ko'z oldimizda birinchi galda bo'y-basti kelishgan, qosh-ko'zlari qora xushro'y inson gavdalanadi. Biroq tashqi emas, ichki go'zallik oliy o'rindadir. Ko'pincha esa biz tashqi go'zallikka aldanamiz.

- Ichki go'zallik deganda nimani tushunasiz?

-Qanday insonlarni har tomonlama go'zal deya olamiz?

(Talabalarning fikrlarini tinglab umumlashtiraman.)

II. O'tilgan mavzuni so'rash:

Uyga vazifa “Sarob” romanidan “Menga yoqqan qahramon” mavzusida matn tuzish edi. *(Matnni yig'ib olaman va o'qib chiqib fikrimni bildirishimni aytaman.)*

Talabalar 3 guruhga bo'linadi, o'tilgan mavzu “Tilimli o'yin” sosida mustahkamlanadi. Buning uchun “Sarob” romanidagi qahramonlar nomi yozilgan vatmon qog'oz taqdim etiladi. O'quvchilar qahramonlar nomidan birini tanlaydilar va ism ostidagi savolga javob beradilar:

Saidiy	MUNISXON	Salimjon
Shafrin	KENJA	Ulfat
Ilhom	Abbosxon	Tesha

Qahramonlar nomi ostidagi savollar quyidagicha:

1. “Sarob” romani qachon yozilgan?
2. Asar qahramoni Saidiy tabiatdan qanday inson?
3. Ulfatning maqtanchoqligi va Saidiyning aldab ketishini qanday baholaysiz?
4. Shafrin nima uchun Saidiyga yordam berdi deb o'ylaysiz?
5. Salimxon Saidiyga nega munchalar qiziqib qoldi, Saidiy manfaatparastmi yoki fidoyi insonmi?
6. Ilhom va Saidiyning bir hikoya haqida suhbatidan nimani angladingiz, Ilhom haqmi?
7. Tesha nima uchun Saidiyning yoniga keldi, Teshani baholang?

8. Abbosxon va Kenjani qiyoslang, qay biri adabiyotga kerakli inson?

9. Kenja adabiyotni yaxshi tushinuvchi inson deb o'ylaysizmi?

***(Guruh ishtirokchilari o'zaro kelishgan holda savollarga javob beradilar
va o'z javoblarini asoslashga urinadilar.)***

III. Yangi mavzu bayoni:

-Xurmatli talabalar bugun biz atoqli adibimiz Abdulla Qahhorning "Millatchilar" hikoyasi bilan tanishamiz:

MILLATCHILAR

Kun tikkada. Soya dim. Shahar mudraydi. Muyulishdagi notarius kontorasidan chiqqan ikki kishi qalin akatsiyalar soya solgan yo'lkada "Russko-aziatskiy bank" tomonga yo'l oldi. Bularning biri-"Diniy, ahloqiy, adabiy mujallaiy milliy" ning noshir muharriri Mirza Bahrom, ikkinchisi - shoir Tavhidiy (darvoqe, "Tavhidiy" uning taxallusi, "Tavhidi lison" ,ya'ni turk tillarini birlashtirish g'oyasining namoyandasi ekaniga ishora qilib qo'ygan). Ikki oshna chaqchaqlashib, kulishib borar edi. Mirza Bahrom qayrilma yoqa jujuncha kamzulning qo'yin cho'ntagidan kichkina daftarcha chiqarib Tavhidiyga berdi va binoyi ish qilganday gerdayib, xitoyi yelpig'ich bilan o'zini yelpidi. Tavhidiy daftarchani ochdi va qadamini sekinlatib o'qiy boshladi:

-bir faqir bir badavlat odamga hamsoya erdi. Bir kuni aning o'g'li faqirni uyiga borib ko'rdiki, ul odam bola-chaqasi bilan allaqanday taomni yeb o'tiribdur; andek zamon tikilib turib ul taomga mayl qildi, ammo uy egalarining hech qaysisi ani taklif qilmadi...

IV. Mustahkamlash:

Talabalar uch guruhga bo'linadi va o'ziga xos nomlanadi. Guruhlarga muammoli savollar kartochka holida beriladi:

"Izquvarlar":

1. Nega yozuvchi hikoya boshida qahramonlarning tashqi ko'rinishiga e'tobor qaratdi? Bunda biror ma'no bormi?
2. Tavhidiyning Mirzo Bahromga azizim deya murojaat qilishidan qanday ma'no tuydingiz?

3. Mirzo Bahrom o'zi yozgan hikoyani nima maqsadda Tavhidiyga berdi?

“Qiziquvchilar”:

1. Nega Mirzo Bahrom itni ko'rib o'zini Tavhidiyning ortiga urdi?
2. Tavhidiyning nega To'rtko'zning egasiga ishora qilib gapirdi?
3. Qahramonlarning itning nomi ustida bahslashishiga qanday qaraysiz?

“Teztoparlar”:

1. Nega qahramonlar Qosimjonboyvachchaga bunchalar yaqinlashishga urinmoqdalar?
2. Piyolaga yozilgan misralar nega keltirildi?
3. Qahramonlarning muloyimlik bilan o'zlarini ustun tutishga urinishlariga munosabatingiz?

Guruhlar o'zlariga berilgan savollar yuzasidan javoblarni beradilar va o'z javoblarini izohlashga harakat qiladilar.

Javoblar tinglangach, umumiy g'oyasi yuzasidan barcha guruh o'z xulosalarini aytadilar. *(Ularning fikrini tinglab, javoblarini umumlashtiraman.)*

V. Darsni yakunlash:

-Aziz talabalar bugun biz O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning “Millatchilar” hikoyasi bilan tanishdik va manfaatparast insonlar va ularning kulguli holatlariga guvoh bo'ldik.

VI. Uy vazifasi:


“Abdulla Qahhor qahramonlarining qiyosiy tahlili” mavzusidagi ijodiy matn tuzib kelish.

Bunda “Bemor” - Sotiboldi, “O'g'ri” - Qobil bobo, “Dahshat” - Unsin, “Sarob” - Saidiy, “Adabiyot muallimi”- Boqijon Boqoyev, “Millatchilar” - Tavhidiy, kabilar solishtiriladi va o'xshash hamda farqli tomonlari ko'rsatiladi.


VII. O'quvchilar bilimini baholash:

Faol guruhlar aniqlanib, o'zga guruhlar asosida taqdirlanadi. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanib, baholar izohlanadi.

“Barkamol avlod”



“Porloq kelasak”



XULOSA

- Ta'lim tizimida Abdulla Qahhor ijodini o'rganish zamonaviy usullari borasida tanishib chiqilgan metodik qo'llanmalar, adabiyotlar va metodik tavsiyalarni o'rgangan holda bitiruv malakaviy ishida quyidagi umumiy hulosalarga kelindi:
1. 6-sinfda Abdulla Qahhor hayoti va ijodiy faoliyatini yangi pedagogik texnologiya asosida o'rganish o'quvchining fikr erkinligini oshiradi.
 2. "Bemor" hikoyasini evristik metod asosida o'rganish o'quvchida mahsuldor ijodiy fikrlash jarayonini tashkil etadi. O'quvchi yangicha fikr kashf etadi.
 3. "O'g'ri" hikoyasini klaster usulida o'rganish orqali o'quvchilar mavzuni yanada yorqinroq tushunadi, guruhlararo ishlash jarayonida esa birgalikda yoritish lazzatini tuyadi.
 4. "Dahshat" hikoyasini bahs- munozara usulida o'rganish vositasida o'quvchi mavzu yuzasidan o'ylanadi, izlanadi, do'stlari bilan mnozara kirishadi va o'zi uchun muammo bo'lgan masalaning echimini topishga harakat qiladi.
 5. 11-sinfda "Sarob" romanini taqqoslash, qiyoslash metodi asosida yangi o'zlashtirilgan bilimlari avvalgilari bilan taqqoslash yangi tushunchalarni mustaqil ravishda tadqiq qilishni taqozo etadi.
 6. "Adabiyot muallimi" hikoyasini tadqiqot metodi asosida o'rganish orqali o'quvchilar dalillar to'plash, nazariy tahlil qilish, tizimga solish, umumlashtirish va ilmiy xulosalar chiqarish kabi amaliy ishlarni bajaradi.
 7. "O'tmishdan ertaklar" qissasini Agar men ... texnologiyasi asosida o'rganish qahramonning ichki dunyosini his qilish, uning quvonchu- dardiga sherik bo'lish asar g'oyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. O'quvchi qaxramoni o'rnida bo'lish orqali uning istaklarini tuyadi.
 8. Akademik liseylarda "Sarob" romanini 6x6x6 metodi asosida o'rganish guruhlar asosida ishlashning eng qulay usuli sifatida o'quvchilarni bahsga undaydi, o'z munosabatini bildirishga chaqiradi. Do'stlarining ko'magida bo'sh

o'zlashtiruvchilar ham mavzuni yahshiroq tushinishiga ko'maklashadi.

9. "Adabiyot muallimi" va "Millatchilar" hikoyalarini induktiv hamda deduktiv metodi asosida o'rganish o'quv materialining mantig'ini ajratishda xususiyydan umumiyga yoki umumiydan xususiyyga o'tishda ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, so'ngra o'quv materialidagi umumlashma xulosalarni chiqaradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch".T.:2008 y
- 2.O'.Toshtemirov, Z.Mirzahamdamov. "Prezident I.A.Karimov asarlarini o'rganuvchilar uchun qo'llanma".Q.:2010 y
- 3.S.Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti".T.:2005 y
- 4.Q.Husanboyeva."Adabiyot- ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili".T.:2009 y
- 5.Maqolalar to'plami."Adabiy ta'lim va yoshlar tarbiyasi". Q.:2010 y
- 6.M.Siddiqov, Z.Yunusova."Til va adabiyot ma'rifati".Q.:2009 y
- 7.Maqolalar to'plami."Umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb- hunar kollejlari hamda pedagogika institutlarida o'zbek tili va adabiyoti fanlarini o'qitishning dolzarb muammolari".Q.:2006 y
- 8.I.Po'latov, H.Ahmedova."Nutq madaniyatini shakllantirish usullari".Q.:2010
- 9.S.Isomiddinov, T.Xolmatov."Pedagogik mahorat asoslari". Q.:2010 y
- 10.N.Mahmudov. va boshq. 6 sinf adabiyot darsligi.T.:2009 y
11. Q.Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Mahmudov 7 sinf adabiyot darsligi.T.:2005
- 12.N. Karimov va boshq. 11 sinf adabiyot darsligi va majmuasi. T.:2004 y
- 13.A.Qahhor."Asarlar". 6 tomlik.T.:1967 y
- 14.M.Qo'shjonov."Abdulla Qahhor ijodida satira va yumor".T.:1973 y
- 15.M.Qo'shjonov."Abdulla Qahhor mahorati".T.:1985 y
- 16.O.Sharofutdinov."Abdulla Qahhor". T.:1987 y
- 17.Xotiralar."Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida".T.:1988 y
- 18.Q.Husanboyeva."Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy- metodik asoslari".Avtoreferat.T.:2004 y
- 19.Q. Yo'ldosh. "Yoniq so'z". T.:2006 y
- 20.A. Qahhor. "Sarob". T.:1967 y
21. I. G'ofurov. "Mangu latofat". T.:2008 y
22. "Til va adabiyot ta'limi": 2002- 4, 2004- 4, 2007- 4, 2007- 9, 2008- 7, 2008- 10, 2010- 2, 2010- 3 sonlar.
23. "O'zbek tili va adabiyoti": 2009- 2, 2010- 4 sonlar.
24. "Jahon adabiyoti": 2007- 2, 2007- 3, 2007- 5, 2007- 7, 2007- 10,2009- 2, 2010- 4 sonlar.